

**O‘zbekiston Respublikasi
Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik
markazi**

Tarbiya

fanidan uslubiy qo‘llanma



Toshkent 2025-yil

“Tarbiya” fanidan alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalar bilan ishlashda o’qituvchilar (fan o’qituvchilari), maxsus pedagoglar, psixologlar hamda ota-onalar uchun ishlab chiqilgan uslubiy qo’llanma 2025-yilning 25-mart kuni Ta’limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi huzuridagi “Maktabgacha va boshlang’ich ta’lim” yo’nalishi bo’yicha Ilmiy-metodik kengashning 1-sonli yig’ilishida muhokama etilib, kengash qaroriga binoan nashrga tavsiya etildi.

Mualliflar: Risyukova Yuliya Vasilyevna
Alimova Gulmira Kabuljanovna
Mo’minov Sulton Akbar o’g’li

Taqrizchilar:

F.Qodirova	Chirchiq davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti “Maxsus pedagogika” kafedrasi mudiri, professor.
U.Xudayberdiyev	O’zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi Inklyuziv ta’lim va mehrli maktab faoliyatini muvofiqlashtirish bo’limi bosh mutaxassisi
G.Xasanova	Toshkent shahri, Bektemir tumani 290-sonli umumiy o’rta ta’lim maktabi inklyuziv ta’lim sinfi o’qituvchisi

Tahrirchi:

M.Kasimova	Toshkent ijtimoiy innovatsiya universiteti “Pedagogika va psixologiya” kafedrasi o’qituvchisi
-------------------	---

Umumiy o’rta ta’lim maktablari uchun

“Tarbiya” fanidan alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalar bilan ishlashda o’qituvchilar (fan o’qituvchilari), maxsus pedagoglar, psixologlar hamda ota-onalar uchun mo’ljallangan.

1-sinf

Kirish

Har bir mamlakat taraqqiyotining muhim sharti yosh yetishib kelayotgan avlodni har tomonlama mukammal bo'lishi, jamiyatning kelajagi esa uning ajralmas qismi bo'lgan ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizda ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish, ta'lim samaradorligini oshirish masalasi bugungi kundagi muhim vazifalardan biriga aylanib kelmoqda.

Ayniqsa davlatning ijtimoiy siyosatida voyaga yetmagan, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ayniqsa ularga ta'lim berish, alohida e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish, shuningdek, ularni jamiyatda o'z o'rinlarini egallashlariga ko'maklashish alohida ahamiyat kasb etadi.

So'ngi yillarda O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga munosib sharoit yaratish, ular ijtimoiy moslashuviga ko'maklashish borasida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Yangi tahrirda qabul qilingan **“Ta'lim to'g'risida”**gi Qonunga ham inklyuziv ta'lim haqida modda kiritildi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning **50-moddasida “Ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanadi”** jumlasining kiritilishi ham diqqatga sazovordir.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'z sog'lom tengdoshlari bilan birgalikda umumta'lim maktablarida bilim olishi, do'stona muhitni, teng huquqligining kafolatlanishi, turli xil zo'ravonlik hamda kamsitishlikka yo'l qo'ymaslik, shu bilan birga bir sinfda bir xil sharoitda ta'lim-tarbiya olishi ko'zda tutilgan.

Ushbu **“Tarbiya”** fanidan inklyuziv ta'limga jalb qilingan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan ishlash yuzasidan ishlab chiqilgan uslubiy qo'llanma umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinf o'qituvchilar (fan o'qituvchilari), maxsus pedagoglar, psixologlar hamda ota-onalar uchun mo'ljallangan bo'lib yakka hamda guruhli sinf mashg'ulotlarida ishlash usullari yuzasidan yondashuv yoritib berilgan.

Qo'llanma amaldagi o'quv reja va dastur, darsliklar asosida yaratilgan bo'lib, sinfda bajaradigan vazifalari, savollarga beradigan javoblari, uy vazifasini bajarishi, yangi dars mavzusiga tayyorlanishi, shaxsiy qiziqish hamda qobiliyatlari, tibbiy tashxislari, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga moslashtirilgan holda ishlangan.

Undan tashqari qo'llanmada umumta'lim maktabida tashkil qilingan inklyuziv ta'lim sinflaridagi boshlang'ich sinf o'qituvchilari va maxsus pedagoglar oddiy bilim beruvchigina bo'lib qolmasdan ta'lim jarayonini, sifatini ta'minlovchi asosiy tashkilotchi hisoblanishi har tomonlama ochib berilgan.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni Tarbiya fani yuzasidan ishlab chiqilgan uslubiy qo'llanma orqali go'zal insoniy fazilatlar, chuqur foydali bilimlar bilan uqtirishdir. Bundan ko'zda tutilgan asosiy maqsad – o'quvchilarni yangi davrning mard va jasur, adolatli va sadoqatli, mehrli va oqibatli, hayoli va oriyatli, vatanparvar, ezgu maslagida qat'iyatli, mustahkam e'tiqodga ega bo'lgan barkamol avlodni voyaga yetkazish va ijtimoiy hayotga moslashtirishdir.

Shuningdek, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni kritik (tanqidiy) fikrlash (critical thinking), kreativlik (creative thinking) muloqot qilish kommunikatsiya (communication), jamoaviy ishlash ko'nikmasi kooperatsiya yoki kollaboratsiya (coordinating with others) ko'nikmalari rivojlantirish maqsad qilib olingan.

Eslatma! Inklyuziv ta'lim sinfi qabul qilingan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalari bo'lgan boshlang'ich sinf o'qituvchisi maxsus pedagog, psixologi, tibbiyot xodimi hamda ota-ona bilan hamkorlikda ish olib borishi lozim. Shu asosida ota-onalar uyda tegishli vazifalarni bajarish, o'rgangan bilimlarini nazorat qilib borishi ko'rsatib o'tilishi maqsadga muvofiq.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'lim sinflarida joylashtirish



1-rasm. Sinflar va laboratoriyalardagi o'quvchilar o'tirish joylarini taqsimlashda o'quvchining salomatligi holati e'tiborga olinishi

1. Evakuatsiya rejasi – bu yerda binodan xavfsiz chiqish yo'llarini ko'rsatuvchi evakuatsiya rejasi joylashgan. Bu jadval binodan favqulodda holatlarda tez va xavfsiz chiqishni ta'minlash uchun muhim.

2. Doska – odatiy sinfxonalarda mavjud bo'lgan yozuv va dars o'tish uchun mo'ljallangan doska.

3. Brayl yozuvli kompyuter – ko'rish qobiliyati past bo'lgan o'quvchilar uchun Brayl shriftli kompyuter va klaviaturalar.

4. Moslashtirilgan o'quv stollari – umumiy o'quvchilar uchun, shuningdek, jismoniy imkoniyati cheklangan bolalar uchun ham qulay bo'lgan maxsus stollar.

5. Nogiron aravasidagi o'quvchi uchun stol – nogironlar aravasidagi o'quvchilarga moslashtirilgan maxsus stol. Stolning balandligi va kengligi o'quvchining harakatlanishiga mos keladi.

6. Xavfsizlik tizimi (qo'ng'iroq tugmasi) – bu yerda favqulodda holatlarda qo'ng'iroqni bosish mumkin bo'lgan xavfsizlik tugmasi mavjud.

7. Eshik va kirish uchun maxsus moslamalar – eshik hududida nogironlar uchun maxsus qulay kirish, pandus va eshik ostonasini ko'rsatadi.

9. "Chiqish" belgisi – evakuatsiya yoki favqulodda holatlarda chiqish yo'lini ko'rsatuvchi yozuv.

10. Evakuatsiyaning audio-va vizual belgilari – eshitish va ko'rish qobiliyati past bo'lgan bolalar uchun maxsus evakuatsiya belgisi.

11. Video kuzatuv kamerasi – sinfnings xavfsizligini ta'minlash uchun o'rnatilgan kamera.

12. Tutqichlar – harakatlanishda qiyinchiliklar bo'lgan o'quvchilar uchun o'rnatilgan maxsus tutqichlar.

13. Evakuatsiya va xavfsizlik uchun audio-va vizual ma'lumot taqdimotchilari evakuatsiya jarayonini osonlashtirish uchun audio va vizual ko'rsatmalar.

14. Taktill yo'l – ko'zi ojiz bolalar uchun joylashtirilgan maxsus taktill yo'llar, bu ularning sinfda xavfsiz harakatlanishlariga yordam beradi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar (*eshitish qobiliyatining yo'qotilishi 60 Db gacha bo'lgan rivojlanishida qo'shimcha buzilishlar bo'lmagan bolalar*)ni doskaga yaqin, o'qituvchi hamda tengdoshlarini ko'rib turishi uchun qulay bo'lgan oyna tomondan hamda har qanday qatordagi birinchi va ikkinchi partada o'tirishini tavsiya qilish (*og'zaki nutq 2,4 m, shivirlash esa 0,5 - 1 m masofadan qabul qilinadi*);

Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bolalar (*ko'rish qobiliyatining buzilishi 0,1 gacha bo'lgan rivojlanishida qo'shimcha buzilishlar bo'lmagan bolalar*)ni sinfga osongina kirib chiqishi uchun o'rta qatordagi birinchi va ikkinchi partaga hamda ko'rish qobiliyati past o'quvchilarga tabiiy yoritish sharoiti ko'proq bo'lgan deraza tomondagi chekka stollardan joylar ajratilishi, shuningdek ko'zoynak bilan ko'rish qobiliyati yaxshi bo'lgan o'quvchilar istagan joylariga o'tirishini tavsiya qilish;

Somatik kasalliklar (*psixofizik va nutqning rivojlanish darajasi yoshiga mos kelmaydigan bolalar*)i mavjud bolalarni ko'pincha jismoniy va psixologik muammolarni bir vaqtda boshdan kechirishini inobatga olib sinf eshigiga yaqin qatordagi partaga hamda revmatizm kasalliklari bor, tez-tez angina va yuqori nafas yo'llarining o'tkir shamollashiga moyil o'quvchilarga derazadan uzoqroqqa o'tirish joylari ajratilishi;

Nutqida og'ir nuqsonlar bo'lgan bolalar (*alaliya, dislaliya, afaziya, rinolaliya, dizatriya, psixik-nutqiy rivojidagi sustlik, duduqlanish*)ni o'qituvchi hamda boshqa (sog'lom) bolalarni aniq ko'rib turishini inobatga olib oyna tomondagi qatorning old qismlaridagi partalarga joylashtirish;

Tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar (*bolalar serebral falaji, skolioz, poliomyelit, miopatiya, osteomyelit, amputatsiya, bo'y o'sishining yetishmovchiligi - pakanalik*)ni maktabning birinchi qavatida joylashgan sinfda, mustaqil harakatlanishiga imkon berishni inobatga olib, o'rta qatordagi birinchi partaga joylashtirish (zarur holatlarda maxsus parta talab qilinadi) qolaversa, o'quvchilarning gavdalari buzilishini profilaktika qilish maqsadida, ularning o'sishiga mebel raqami mos kelishi, oxirgi qatorda o'tirganlar bir yilda 2 marta joylarini o'zgartirishlariga sharoit yaratish;

Aqliy rivojlanishi saqlangan holda tayanch-harakat tizimidagi buzilishi bo'lgan bolalarni jismoniy qiyinchiliklarga duch kelishini, ammo intellektual jihatdan o'z tengdoshlari bilan bir xil ekanligini inobatga olib o'rta qatorga joylashtirish;

Aqliy rivojlanishi saqlangan yoki ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalar (*o'zi harakat qila oladigan yoki qo'shimcha moslamalar va nogironlik aravachasida harakatlana oladigan bolalar serebral falaji*)ni maxsus pedagogik, tibbiy va psixologik yondashuvlar talab qilinishini inobatga olib o'rta qatorga joylashtirish;

Intellektual rivojlanishning potensial buzilmagan imkoniyatlari bilan ruhiy rivojlanishda orqada qolgan bolalarni sinf eshigiga yaqin bo'lgan chetki qatorning birinchi va ikkinchi partalariga joylashtirish;

Xulq-atvor va ruhiyatning qo'pol buzilishlarisiz autistik spektorida buzilishi bo'lgan bolalarni eshikka yaqin bo'lgan qatorning devor tomonidan birinchi va ikkinchi partaga o'tirishini taklif qilish;

Intellektual rivojlanishi saqlanib qolingan, tutqanoq holatida bo'lgan bolalar (*agar bola antikonvulsant dorisini qabul qilganda, tutqanoq bir oyda bir martadan oshmagan vaqtda*) alohida e'tibor va yondashuv talab qilishini inobatga olib sinfdan hech kimga xalal bermasdan chiqib ketishga qulay bo'lgan eshikka yaqin o'ng tomondagi qatorlarga joylashtirish;

Diqqat yetishmasligi hamda giperaktiv bolalarda diqqatni jamlashda, topshiriqlarni yakunlashda yoki o'rnatilgan tartib qoidalarni bajarishda qiyinchiliklarga duch kelishini inobatga olib eshikka yaqin bo'lgan qatorga joylashtirish lozim.

Mazkur tavsiya O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining **"Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"** 2021-yil 12-oktabrdagi 638-sonli hamda "Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risida" nizomi hamda Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo'mitasining **"Maktabgacha ta'lim va umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarini jihozlashda foydalaniladigan mebellarga qo'yiladigan sanitariya-gigiyena talablarini (0057-23-son sanqvan) tasdiqlash to'g'risida"** 2023-yil 7-noyabrdagi 24-sonli qaroridan kelib chiqib tayyorlangan.

1-dars. Jonajon Vatanim.

O'qituvchi o'quvchilar bilan salomlashish odobini namuna sifatida biror o'quvchi bilan salomlashib o'zini tanishtirish madaniyatini ko'rsatishi lozim.

Bunda “**Tanishuv mashqi**” dan foydalaniladi. Pedagog “Bugun siz bilan “Tanishuv” mashqini o'tkazamiz” deb aytadi. Yonma-yon o'tirgan tengdoshiga qarab turib olish va bir biriga ismlarini aytib tanishish so'raladi. Keyingi bosqichda hamma istagan 5 nafar tengdoshini oldiga borib o'zini va partadoshiga ismini aytishni ta'kidlaydi.

O'quvchilar bir-birlariga ismlarini aytib, tanishib oladilar. Mashq avval juftlikda, so'ngra sinf bilan o'tkaziladi.

O'quvchilarning darsga tayyorgarlik holatini oshirish maqsadida:

Yaqinda biz eng qutlug' bo'lgan qanday bayramni nishonladik?, Prezident sovg'alari sizga yoqdimi?, Prezidentimizga nima deyishimiz kerak? kabi savollar beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning bergan javoblariga qo'shimcha sifatida Prezidentimizning barcha o'quvchilarga ishonchi katta ekanligi darslikning dastlabki sahifalarida berilgan Prezidentimizning nutqi hamda bolalar bilan tushgan foto sur'ati ko'rsatiladi. Undan tashqari maktab davrida egallanadigan bilimlar, yorqin taassurotlar, do'stlar hamda dono murabbiylar bilan tanishish imkoni berilishi aytiladi.

Barcha bolalar:

maktabda hamda sinfda o'zini qanday tutish qoidalari;



ismi aytilganda o'rnidan turib javob berish;

sinf doskasi oldiga chiqqanda qanday turish hamda o'z o'rniga kelib o'tirish ko'nikmalari;

darsliklar, mashq daftarlari, o'quv-qurollaridan samarali foydalanish va uni asrash;

ko'chadan uyga kirganda qo'llarni sovunlab yuvish;

kiyinish madaniyatga amal qilish zarurligi ta'kidlanadi.

O'qituvchilar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning jismoniy hamda ruhiy rivojlanishidagi muammolarni inobatga olib barcha yodda tutish lozim bo'lgan tartiblarni amaliy o'quvchilar bilan birgalikda bajarib ko'rsatishi lozim. Hatto kitob varaqlash tartibini ham bajarib ko'rsatishi talab qilinadi.

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan ishlashda namunalar og'zaki aytilishidan ko'ra amaliy bajarib ko'rsatilishi maqsadga muvofiqdir! Vatan tushunchasini o'rgatish orqali shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga erishish, milliy qadriyatlarni anglash va o'zlarini jamiyatning faol a'zosi sifatida his qilishi, hissiyotlarini boshqarishni, boshqalar bilan hamkorlik qilishni hamda kelajak uchun mas'uliyatni his qilishni o'rgatish kerak.

O'quvchilarni darsga jalb qilishda Vatan mavzusiga to'xtaladi, bunda barchani diqqatini tabiat qo'yniga qaratib Guljamol Asqarovaning **"Vatan va ostona"** she'ri tushuntirib beriladi.


O'quvchilarni Vatanga bo'lgan muhabbatini oshirish, faxr g'urur tuyg'ularini shakllantirish maqsadida berilgan rasm asosida savol-javob ustida ishlanadi.

Vatanimiz nomi nima?, Siz qayerda tug'ilgansiz?, Ismingiz kim?, Kimning farzandisiz?, Mahallangizni yaxshi ko'rasizmi?, Buyuk ajdodlarimizdan kimlarni bilasiz?, Vatanimiz uchun nima qilmoqchisiz?, Yaxshilik qilishni xohlaysizmi? kabi savollar beriladi.

Undan tashqari "Men o'zbekistonlik ekanligimdan faxrlanaman" tuyg'usi darslikda berilgan ajdodlarimiz rasmlari bilan mustahkamlanadi (*Qo'l bilan ko'rsatib har bir shaxs haqida ta'rif berilishi shart*).

O'qituvchi yordamida darslikning 10-sahifasida berilgan rasmdan foydalanib matn ustida ishlanadi. Bu jarayon yakunida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga dunyodagi mashhur tarixiy shahar nomlari aytilganda rasmdan qo'l bilan ko'rsatishi talab qilinadi.

Matn Vatanni yana qanday nomlash, O'zbekistonni qanday shaharlarini bilasiz, siz qaysi shahar (qishloq)da yashaysiz kabi savollar bilan mustahkamlanadi.



O'quvchilarni ijodiy qobiliyatini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston bayrog'i bo'yaladi. Buning uchun o'quvchi rasmda berilgan rangning bir qismiga qarab qalam tanlab olishi lozim. Undan keyin rasm tartib bilan bo'yaladi. Ish yakunlangandan keyin har bir rang ko'rsatilib tabiatga bog'lab ma'nosi ochib beriladi.

Xalq o'g'itlari ifodali o'qib berib ma'nosi tushuntiriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'zlariga yoqqan o'gitni tanlashi lozim bo'ladi.

O'quvchilarni ijodiy qobiliyatini rivojlantirish maqsadida o'quvchilar bilan suhbat tashkil qilinadi va qaysi nomli ko'chada va uyi (yashash manzili) haqida bilib olinadi. Undan keyin o'qituvchi yoki tengdoshi yordamida chiziqlardan chiqib ketmagan holatda rasm chizish topshirig'i beriladi.

O'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlarini aniqlash maqsadida xursand va xafa smayliklarini ko'rsatish va bo'yash vazifasi beriladi.





Undan tashqari dars mazmuni haqidagi fikrlarini bilib olish uchun quyidagi smayliklarini ko'rsatish va bo'yash aytiladi.

Sizda qo'shimcha savollaringiz bo'lsa menga berishingiz mumkin.

Uyga vazifa. Oila a'zolarining bilan maktabdan olgan taassurotlaringizni bo'lishing.

2-dars. Men kimman?

O'quvchilardan bugungi kun, oy, yil hamda ob-havo ko'rgazmali qurollar asosida rolga kirib ko'rsatiladi.

Avvalgi darsda o'tilgan **“Jonajon Vatanim”** mavzusi yuzasidan: Yaqinda biz eng qutlug' bo'lgan qanday bayramni nishonladik?, Prezident sovg'alari sizga yoqdimi?, Vatanimiz nomi nima?, siz qayerda tug'ilgansiz?, ismingiz kim?, mahallangizni yaxshi ko'rasizmi?, buyuk ajdodlarimizdan kimlarni bilasiz?, Vatanimiz uchun nima qilmoqchisiz?, kabi savollar bilan mustahkamlanadi.

O'qituvchi eng faol ikki nafar o'quvchini tanlab olib suhbat tashkil qiladi. Bunda o'quvchilarning bir nafari aniq alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bola bo'lishiga ahamiyat beriladi. Unda endi bolalarni maktab o'quvchisiga aylanganligi, katta bo'lib qolganligi, kiyinish madaniyati o'zgarganligi, yangi do'stlar orttirilganligi aytiladi. Qolgan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar esa namuna sifatida amaliy bajarib ko'rsatayotgan tengdoshlariga qarab, ko'rsatilgan jarayonlarni eslab qolishi va tushungan ma'lumotlarini takrorlashi kerak bo'ladi.

	O'quvchilarda muloqotchanlik qobiliyatini rivojlantirish maqsadida Akmal va Madina ishtirokida qisqa dialog tashkil qilinadi. Har bir ishtirokchi salom berib ismi va yoshini, undan tashqari yoqtirgan mashg'ulotini aytadi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni Akmal va Madina haqida fikrlari o'rganiladi. Yoqtirgan mashg'uloti haqida suhbatlashiladi.	
---	---	---



Darslikning 14-sahifasidagi namunaga qarab “Mening tashrif qog'ozim” mavzusi ustida ishlanadi. Dastlab o'qituvchi bitta qog'oz parchasini olib ismini, yoshini hamda qiziqishlarini yozadi. Undan keyin o'quvchilar navbat bilan aytishadi. Sinfdagi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga **yozuv bilan emas so'z bilan ta'riflab berish** imkoniyati beriladi.



Darslikning 15-sahifasidagi rasmlar asosida uydagi sevimli mashg'ulotlar hamda oila a'zolaridan, ko'chada kimga qanday yordam berishni aytib berishadi.

Bu topshiriqda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar qay darajada egallaganligini bilish maqsadida bo'sh vaqtda qanday ishlar bilan mashg'ul bo'lsa shu jarayonni chizish so'raladi. Chizishda qiyinchilikka uchrasa og'zaki aytish imkoniyati beriladi.

Eslatma: Har bir alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga shaxsiy qiziqish hamda qobiliyatidan kelib chiqib yondashish maqsadga muvofiqdir!

“O‘zim haqimda rasm chizish” metodikasi

Mavzu tushunarli bo'lishi uchun **“O‘zim haqimda rasm chizish”** metodikasidan foydalaniladi. Vazifa sifatida bolaga qog'oz, rangli qalamlar beriladi va o'zini chizishi aytiladi. Rasm chizish davomida o'zing haqingda aytib ber, isming nima, nimalarni yaxshi ko'rasan, qaysi rangni yoqtirasan kabi savollar beriladi.

Jarayon davomida bola o'z rasmini chizadi (*yordam kerak bo'lsa, yordam beriladi*). Rasmdagi har bir narsani tushuntirib beradi (*Masalan: “Bu menman, ko'k rangni yaxshi ko'raman, do'stlarim bilan o'ynashni yoqtiraman”*).

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni yanda qiziqishini oshirish maqsadida bolani mulohaza qilishga undaydi: **“Sening isming juda chiroyli!”**, **“Sen o'zing haqingda ko'p narsani bilasan!”** va hokazo. Shu kabilar orqali bola o'zini tanishni, ifodalashni rasm va so'zlar yordamida oson o'rganadi.

Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning otalari bilan birgalikda darslikning 15-sahifasiga bo'sh vaqtda nimalar qilish rasmi chiziladi.

3-4-darslar. Maktabga sayohat

Eslatma: Har bir alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni erishgan har qanday natijasini katta yoki kichikligiga qaramasdan rag'batlantirish ijobiy natija beradi. Maktabda bola bilim olish, ijtimoiy hayotga tayyorlanish, kelajakda ularning jamiyatda o'z o'rnini topishiga katta hissa qo'shishi ta'kidlab o'tilishi zarur.

O'quvchilardan bugungi kun, oy, yil hamda ob-havo ko'rgazmali qurollar asosida rolga kirib ko'rsatiladi.

Avvalgi darsda o'tilgan **“Men kimman?”** mavzusi Akmal va Madina suhbatini bilan mustahkamlanadi. Uyga berilgan “Bo'sh vaqtda nimalar qilganligi” tasvirlanган rasm ustida ishlanadi. Chizilgan rasm uchun alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar rag'batlantiriladi.

Quddus Muhammadiyning **“O'quvchiga esdalik”** she'ri ifodali o'qiladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga tushunarli bo'lishi uchun rollarga kirib harakatlar bilan tushuntiriladi.



Akmal va Madina suhbatidan foydalanib maktabdan o'qib turgan sinfdan boshqa qanday xonalar borligi haqida tanishtiriladi. Mavjud xonalar darsda aytilgandan keyin alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga tushunarli bo'lish maqsadida o'qituvchi hamda

tengdoshlari bilan birgalikda sayr qilinadi.

Sinf xonasiga kelganda bu yerda dars o'tilishi, o'quvchilar turli fanlarni o'qishi aytiladi. Shu o'rinda maktabga kelgan kundan buyon qaysi fanlar o'rganilayotganligi so'raladi va javobi yuzasidan kelib chiqib tushuntiriladi.



Yo'la (Koridor) bilan tanishtirish jarayonida bu yerda talaffuz vaqtida vaqt o'tkazish mumkinligi aytiladi. Yo'lakda sekin yurish kerakligi, yugurish va shovqin solish mumkin emasligi ta'kidlanadi.



Barcha bolalar: Maktab hududida telefon qo'ng'irog'ining ovozi pasaytirib qo'yish, dars boshlanishidan oldin telefonni o'chirib, portfelga solib qo'yishi zarur.



Sport zaliga doim o'qituvchi bilan birgalikda kirish zarurligi, sport mashg'ulotlari davomida xavfsizlik qoidalariga amal qilish lozimligi ta'kidlanadi. Undan tashqari sport zalida jismoniy tarbiya mashg'ulotlari o'tkazilishi, mashg'ulotlarga sport formasi

bo'lish zarurligi, bu yerda o'quvchilar jismonan chiniqishi, bola sog'ligi uchun ijobiy tomonlari borligi aytiladi.

Ijod zalida yig'ilishlar va bayramlar o'tkazilishi, bu yerda sahna va tomoshabinlar uchun o'rindiqlar mavjudligi, o'quvchilar sahnada o'z qobiliyatlarini ko'rsatishi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ko'rsatib




tushuntiriladi. Bu yerda "Qo'shiq kuylaydi", "Raqsga tushiladi". Biz ustozlar va sizlar bu kabi tadbirlarga tomoshabin sifatida kirgan vaqtimiz hech kimga xalaqit qilmasdan o'tirishimiz, baland gapirmasligimiz, qattiq kulmasdan o'tirishimiz lozimligi aytib o'tiladi.



Maktab oshxonasida o'quvchilar ovqatlanadi. Oshxonaga kirishda hamda chiqishda qo'llarni tozalab yuvish, ovqatlanayotgan vaqtda telefonga chalg'imaslik, atrofdagilarga xalal bermaslik, ovqatlanib bo'lib sekingina

chiqib ketish zarurligi ta'kidlanadi.

Maktab kutubxonasida turli kitoblar saqlanishi, o'quvchilar u yerdan kitob olishlari, o'quv zalida mutolaa qilishlari, undan tashqari kitoblarni o'qish uchun uyga olib ketish mumkinligi haqida ma'lumot beriladi. Barcha kitoblarni o'z vaqtida, butun holatda qaytarish, undan boshqa o'quvchilar ham foydalanishi zarur. Shu orada o'quvchilardan qanday kitoblarni o'qishga qiziqishi yuzasidan suhbat tashkil qilinadi.



E'tibor bergan bo'lsangiz maktabimizda oq xalat kiyib yuradigan shifokorimizga ko'zingiz tushgan. Bu xona shu shifokorga tegishli bo'lgan **tibbiyot xonasi** hisoblanadi. O'quvchilardan yoki maktab xodimlaridan kimdir jarohat olsa, o'zini yomon his qilsa, isitmasi chiqsa unga shu xonada shifokor tomonidan yordam beriladi.



Bu maktab **pedagog-psixologi xonasi**. Maktab psixologiga tegishli bo'lib o'quvchilar qiyin holatga tushganda yordam berib, qo'llab-quvvatlaydi. Maktabda, uyida yoki ko'chada og'ir vaziyatga tushib qolganda

psixolog bilan suhbat qilish mumkin. G'azab, hayajon, qo'rquv, xavotirni ichda saqlamasdan psixologdan tashqari barcha kattalar ham yordamga tayyorligi tushuntiriladi.

Bu maktab **hojatxonasi** ekanligi ko'rsatiladi. Bu yerni toza saqlash sog'lik uchun zarurligi, undan tartibsiz foydalanish, eshik va devorlarni tepib, ularga chizish, iflos qilish, gigiyena qoidalarini buzish mumkin emasligi aytiladi.



Hojatxonadan foydalanib bo'lib:

qog'ozni chiqindi qutisiga tashlash;
suv tushirgichni ishlatish;
qo'llarni sovunlab yuvish zarur.



Maktab devorlariga e'tibor bersangiz evakuatsiya rejalariga ko'zingiz tushadi. Kutilmagan holatlarda maktabda yong'in, gaz sizib chiqishi yoki zilzila bo'lishi mumkin. Bu rejalar favqulodda holat yuzaga kelganda bino bo'ylab qanday harakatlanish lozim.

Darslikning 22-sahifasida berilgan evakuatsiya rejasidagi belgilarning har biri katta qilib qog'ozga chiqarib olinadi va har birining vazifasi tushuntiriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga tushunarli bo'lish maqsadida har bir belgi va uning ta'rifi qog'ozga chiqarib beriladi, ular qog'ozlarni bir biriga moslab berishi kerak bo'ladi.

			
Asosiy evakuatsiya yo'li	Yong'in o'chirish vositasi	O't o'chirgich	Yong'indan ogohlantirish tugmasi



Barcha birgalikda tabiat qo'yniga chiqiladi. **Maktab hovlisi** maktab uchun tegishli bo'lgan atrofdagi o'ralgan hudud hisoblanadi.

Maktab hovlisiga gullar daraxtlar ekish, ekilgan gullar asrab avaylab, gulzorga aylantirish lozimligi aytiladi.



Barcha tabiatni ko'z qorachig'imizdek asrab avaylashimiz shart va zarur.

Maktab hovlisida gullar, daraxtlar, gulzorlardan tashqari **sport maydonchalari** bo'ladi. Bu yerda jismoniy tarbiya darslari hamda sport to'garaklari o'tkaziladi.



Shu vaqt oralig'ida o'quvchilarning tushunish darajasini aniqlash maqsadida qanday jismoniy mashqlar va sport turlarini bilishi yuzasidan suhbatlashiladi.

O'quvchilarning diqqatini jalb qilish hamda mantiqiy fikrlashini oshirish maqsadida darslikning 24-sahifasida berilgan rasmlar qaysi xonada bajarishini fikrlab birgalikda aytadi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni qanday darajada tushunganligini bilish maqsadida har bir rasm alohida alohida birga ishlanadi.



O'tilgan dars qanday darajada qiziqarli tashkil qilinganligini aniqlash maqsadida ikki holatdagi smaylik qo'yiladi. O'quvchi bo'yashi yoki qo'l bilan ko'rsatishi kerak.





Dars mazmuni tushunarli bo'lganligini bildirish maqsadida bo'yashi yoki qo'l bilan ko'rsatishi mumkin.

“Maktabga sayohat” metodikasi

Metodika boshlanishida o'qituvchi bolalarga shunday savol beradi: **“Siz maktabga kelganingizda eng yoqimli joy qaysi edi? Sinfmi? Sport zali? Kutubxonami?”**, bolalar fikr bildirishadi. O'qituvchi ularga **“Bugun biz maktab bo'ylab sayohat qilamiz!”** deya yangilik kiritadi.

Shundan so'ngra, sinfda kichik **“Maktab xaritasi”** tasvirlanadi. Har bir maskan - kutubxona, oshxona, sport zali, o'qituvchilar xonasi, bog'cha maydoni, sog'liq burchagi kabi joylarga belgilar qo'yiladi. Bolalar bu xarita bo'yicha **“Sayohat”** qilishadi. Har bir maskanga borganlarida o'sha joy haqida qiziqarli faktlar, kichik topshiriqlar yoki savollar bo'ladi. Masalan, kutubxonada kitoblar haqida savol, oshxonada sog'lom ovqatlanish haqida suhbat, sport zalida qisqa jismoniy mashq qilinadi.

Sayohat davomida har bir bola o'ziga eng yoqqan maskanni rasmga chizadi yoki kichik hikoya aytadi: **“Menga oshxona yoqdi, chunki u yerda har doim xushbo'y hidi keladi”**.

Dars so'ngida bolalarga shunday xulosa chiqarishga yordam beriladi: **“Maktab – bu faqat dars emas, balki do'stlik, o'yin, sog'liq, bilim, harakat joyi”**. Har bir bola **“Maktab men uchun...”** deb gap boshlaydi va o'z fikrini bildiradi.

Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning otalari yordamida Quddus Muhammadiyning “O'quvchiga esdalik” she'rini yod olish.

5-6-darslar. Maktabim-ikkinchi uyim

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ma'lumot berishda ko'rib eshitib o'qish bilan bir qatorda qo'l bilan ushlab ko'rib sezish yuqori natija beradi. Maktabni "Ikkinchi uy" sifatida his qilish tuyg'usini shakllantirish orqali ularning ruhiy va ijtimoiy barqarorligini ta'minlanadi, ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi, bolalarning jamiyatda o'z o'rnini topishida ham katta ahamiyatga ega.

O'quvchilardan bugungi kun, oy, yil hamda ob-havo ko'rgazmali qurollar asosida rolg'a kirib ko'rsatiladi.

Avvalgi darsda o'tilgan **"Maktabga sayohat?"** mavzusi sinf xonasi, koridor, sport zali, ijod zali, maktab oshxonasi, maktab kutubxonasi, tibbiyot xonasi, maktab psixologi xonasi, hojatxona, maktab hovlisi, sport maydonchalari rasmlari bilan mustahkamlanadi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham barcha rasmlarga qarab barcha

xonalarni aytishi lozim.

Uyga berilgan Quddus Muhammadiyning **"O'quvchiga esdalik"** she'ri Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga kitobga qarab aytib berishiga imkon beriladi.

Dastlab barcha o'quvchilarning maktabga kelishdan oldin qanday ta'lim-tarbiya olganligi o'rganiladi. Undan keyin o'qituvchi yordamida darslikning 25-sahifasida berilgan rasm, matn hamda QK yordamida maktab haqida tushunchalar beriladi.

Maktab orqali ilm olish, yangi do'stlar orttirish, mustaqil hayotga tayyorlanish mumkinligi, ikkinchi uy hisoblanish tushuntiriladi.

Maktabni asrab-avaylash, boshqa bolalar, uka va singillar ham kelib bilim olishi aytiladi.



Shu jarayonda barcha o'quvchilar bilan bir qatorda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga alohida maktabda tozalikka rioya qilish, chiqindilarni doim chiqindi qutisiga solish zarurligi tushuntiriladi.

Maktab haqidagi matn nima uchun maktabga kelamiz?, nega ikkinchi uyimiz deb ataymiz?, o'zimizni qanday tutishimiz kerak kabi savollar bilan mustahkamlanadi.

O'quvchilarni fikrlashi bilan yozish qobiliyatini rivojlantirish maqsadida darslikning 26-sahifasida berilgan rasmlarga mos matn tanlash mashqi o'tkaziladi. Bunda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga tushuntirish uchun har bir rasm hamda matn alohida alohida qilib tayyorlanadi. Dastlab



o'qituvchi rasmga mos matnni topib ko'rsatadi. Ikkinchi marta esa bola o'zi rasmga mos matnni topib qo'yish vazifasini beradi.

				
Agar dars payti nimadir demoqchi bo'lsangiz, qo'lingizni ko'taring.	Sinfdozlaringiz bilan birgalikda o'ynang.	O'qituvchingiz va sinfdozlaringiz javobini diqqat bilan tinglang.	Uy vazifasini bajaring.	Biror narsani tushunmasangiz, so'rashdan tortinmang.



Barcha o'quvchilarga maktab mulkini asrash yuzasidan master klass tashkil qilinadi. Sinfdozingiz bexosdan rasm chizib qo'ydi deb hisoblaymiz. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga tushunarli bo'lish maqsadida partaga qog'oz yopishtiriladi va chizib tashlanadi (*Bola bu qanchalik yomon ko'rinishini o'z ko'zi bilan ko'radi*).

Barcha o'quvchiga tushunarli bo'lish maqsadida bunday vaziyatda nima qilish lozimligi, maktab mulkini asrab-avaylash qanchalik muhimligi, siz sinf xonasini asrashga qanday hissa qo'shasiz savollari ustida ishlanadi.


Tabiatni asrash yuzasidan "Har bir varaq muhim!" matni ustida ishlanadi. Barcha o'quvchilar qatorida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ham tushunarli bo'lishi maqsadida bitta varaq olinadi. Varaqni bir tomoniga yoziladi va uni ikkinchi tomoni ham mavjudligi aytilib, u tomoniga ham yozish mumkinligi ko'rsatiladi. Shu orqali chiqindilar miqdorini kamaytirish, bu orqali daraxtlar hamda atrof-muhitni asrash, faqat bir tomoniga yozilgan varaqlarni chiqindiga tashlamaslik tushuntiriladi.



Vaziyatni o'rganish va fikr bildirish jarayoni. Bunda barcha o'quvchilarga tushunarli bo'lishi uchun tabiiy bajarib ko'rsatiladi. O'qituvchi "Faraz qilamiz tanaffus vaqti" deb aytadi. Bir nafar o'quvchi konfet qog'ozini oladi va polga tashlab yuboradi. Bu

holat yaxshi odat emasligini bunday vaziyatda siz nima qilasiz?, o'rtog'ingizga chiqindini duch kelgan joyga tashlamaslik zarurligini qanday tushuntirasiz kabi savollar bilan tushuntiriladi.

O'quvchilarni dars qiziqarli bo'layotganligini aniqlash uchun istalgan smaylikni bo'yashi	Dars mazmuni tushunarli bo'lganligini aniqlash uchun istalgan smaylikni bo'yashi
---	--



O'qituvchi hamda darslikning 29-sahifasidagi inson fazilatlarini yozilgan rasm asosida **"Ustoz"** maqomi hamda yaxshi inson fazilatlarini tushuntiriladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ham tushunarli bo'lishi, anglab yetishi

maqsadida har bir fazilatlar alohida alohida qilib qirqib olinadi va ta'riflanadi. Barcha fazilatlar tushuntirib berilgandan keyin o'quvchilarga fazilatlar ta'rifi beriladi, u qaysi fazilat haqida gap ketganligini olib ko'rsatadi.



Barchaga ustoz haqidagi o'zbek xalq o'giti o'qib beriladi va ma'nosi tushuntiriladi. Uyda ota-onalarimizni ham, o'qituvchilarni ustozlar o'qitganligi, barcha qahramonlarimiz erishayotgan yutuqlarida o'rni beqiyosligi ta'kidlanadi. Shuning uchun ham biz o'zbeklarda ustozning o'rni beqiyos deb e'tirof etiladi.

O'quvchilarni amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida darslikning 30-sahifasidagi **"Mening birinchi ustozim"** rasmi bo'yaladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni xotirasini aniqlash maqsadida o'qituvchisini ismini aytish so'raladi.

Darsni yakunlashdan oldin o'quvchilardan:

Endi men.....bilim oldim.

Endi men.....qilaman.

Endi men.....qilmayman. Jumalari to'ldiriladi.



Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham bu og'zaki berilgan topshiriqni bajarishi uchun biroz vaqt beriladi. Undan tashqari sinfda faol bo'lgan bir nechta o'quvchilar javobini eshitib keyin javob berish imkoniyatini taqdim etish lozim.

"Maktabimni ko'rsataman" metodikasi

Dars mazmuni tushunarli bo'lishi uchun **"Maktabimni ko'rsataman"** metodikasi bilan shug'ullaniladi. Bunda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolaga aytiladi: **"Maktabda nimalar bor?, rasmda ko'rsat"**. Bola qog'ozga maktabdagi narsalarni chizadi. Masalan, sinf xonasi, o'qituvchi, do'stlar, o'yin maydonchasi va hokazolar. Undan keyin so'raladi:

senga maktabda nimasi bilan yoqadi?;

“Maktabda o‘zingni qanday his qilasan?” kabi. Bola o‘z fikrini aytadi (*lug‘atida mavjud so‘zlari yetmasa, yordam beriladi: “Sen bu yerda o‘qiysan, o‘ynaysan, do‘stlaring bor, to‘g‘rimi?”*).

Shu kabilar orqali bola maktabni o‘z uyi kabi his qilishni rasm va oddiy savollar orqali o‘rgatiladi.



Uyga vazifa beriladi. Maktab haqida berilgan ma’lumotlar mustahkamlanadi. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning otalarining ustozlari haqida ta’riflarini bilib kelish vazifasi beriladi.

7-dars. Uydan maktabgacha yo'l

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga berilgan topshiriqlarda xatoliklarga yo'l qo'ysa yana bajarib ko'rish imkoniyatini bering.

O'quvchilardan bugungi kun, oy, yil hamda ob-havo ko'rgazmali qurollar asosida rolga kirib ko'rsatiladi.

Avvalgi darsda o'tilgan **“Maktabim-ikkinchi uyim”** mavzusi **“Tozalikka qat'iy rioya qilish”** tartib qoidalari orqali mustahkamlanadi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalardan ota-onasi hamda ustozlari haqida ta'rif berish so'raladi va javoblari yuzasidan rag'batlantiriladi.

Akmal va Madina suhbatini asosida Madina va dadasining suhbatini muhokama qilinadi.

Bu suhbatga alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni ham jalb qilish maqsadida:

Siz kim bilan va qanday transport vositasi keldingiz?

Qaysi ko'chada yashaysiz? kabi savollar beriladi. Suhbat davomida Madinani qilgan kamchiliklari muhokama qilinadi va bu yomon oqibatlarga olib kelish mumkinligi ogohlantiriladi.

O'qituvchi tomonidan svetofor rasmi ko'rsatiladi va buni biz qayerda ko'rganmiz deb o'quvchilarning fikrlari o'rganiladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga tushunarli bo'lishi uchun o'qituvchi uning oldiga kelib gapiradi. Svetofor chiroqlarini ishorasiga qarab harakatlanish bir necha o'quvchilar harakatlari orqali tushuntiriladi.



Shuningdek, svetofordan o'tayotgan vaqtda nogironligi bo'lgan shaxslarga yordam berish zarurligi ta'kidlanadi.

O'qituvchi yordamida berilgan rasmlar ustida ishlanadi. Barcha o'quvchilarga tushunarli bo'lishi uchun har bir rasmning so'zdagi ifodasi ham alohida qog'ozga chiqarilib bir biriga moslab qo'yiladi.

Barcha berilgan holatlarda ham yo'l harakati qoidalariga qat'iy amal qilish zarurligi ta'kidlanadi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham

qay darajada tushunganligi aniqlash maqsadida biror rasm ko'rsatilib uni yozuvdagi ifodasini topish so'raladi.



Mazkur topshiriq maktabda nimada kelasiz?, qanday yo'l harakati qoidalarini bilasiz?, maktabgacha bo'lgan yo'lda qanday xavf-xatar bo'lishi mumkin?, nega yo'ldan o'tayotganda telefonda gaplashmaslik kerak? savollari bilan mustahkamlanadi.

O'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish maqsadida barcha uyidan maktabgacha bo'lgan yo'lni tasvirlaydi. O'qituvchi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga yordam beradi. Agar u yo'lni aytib tursa o'qituvchi qalam bilan chizib berishi mumkin bo'ladi.

“Yo‘limni chizaman” metodikasi

Dars yanada tushunarli bo'lishi uchun **“Yo‘limni chizaman”**  nomli metodikadan foydalaniladi. Dastlab bolalarga aytiladi: **“Uydan maktabgacha qanday borasan, rasmini chizib bera olasanmi?”**.

Bolalar qog'ozga uyidan maktabgacha bo'lgan yo'lni chizadi (*Masalan: uy, daraxt, ko'cha, svetofor, maktab*). Shundan keyin ulardan quyidagilar so'raladi:

yo'lda nimalarni ko'rasan?;
qaysi joydan o'tasan?;
svetofor oldida nima qilasan?;
kim bilan maktabga borasan?

Shu orqali bola o'z yo'lini eslab qoladi. Shuningdek, chizish, so'zlash, **“Uy-maktab”** tushunchasini oson anglashiga erishiladi.

Barcha o'quvchilarning darsni qay daraja egallaganligini aniqlash maqsadida:

Endi men.....bilim oldim.

Endi men.....qilaman.

Endi men.....qilmayman., jumalari bilan to'ldiriladi.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onalarining yordami bilan uydan maktabgacha yo'l rasmi yakunlanadi, svetafor ishoralariga qarab harakatlanish o'rganib kelinadi.

8-dars. Biz ahil jamoamiz

Eslatma: Boshqa sog'lom bolalarga alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalardagi jismoniy yoki ruhiy muammolar ularni boshqalardan farqli deyishga asos bo'la olmaydi.

O'quvchilardan bugungi kun, oy, yil hamda ob-havo ko'rgazmali qurollar asosida rolga kirib ko'rsatiladi.

Avvalgi darsda o'tilgan **“Uydan maktabgacha yo'l”** mavzusi uyga berilgan vazifa asosida mustahkamlanadi, berilgan javoblar rag'batlantiriladi.

O'qituvchi yangi mavzuni tushuntirishdan oldin: **““Maktabga sayohat”** mavzusini eslatiladi, har bir sinfning o'zini xonasi bo'lgani kabi shu jumladan shu sinf ham bizga tegishli” deb aytadi.

Sinfda xuddi uyda oila a'zolaringiz bir oila bo'lgani kabi biz ham shu sinfda bitta oila bo'lish lozimligi ta'kidlanadi. O'qish davomida quvonchli va tashvishli kunlar bo'lishi, bir-birimizni qo'llab-quvvatlashimiz, hurmat qilishimiz zarurligi ta'kidlab o'tiladi.

Barcha o'quvchilar qatorida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham eslab qolishi uchun jarayon amaliy bajarib ko'rsatiladi.

Bunda o'qituvchi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolani yonidagi tengdoshiga u bilan oshxonaga birgalikda olib borib kelishini aytadi. Qaytib kelgandan keyin o'quvchi olqishlanadi va bir-birini qo'llab-quvvatlagani aytiladi.

“Kuch birlikda” xalq o'giti tabiat bilan bog'lab tushuntiriladi. O'qituvchi dars boshlanmasdan oldin daraxt novdalarini olib kelib qo'yadi. Dastlab xalq o'giti o'qib beriladi. Barchaga tushunarli bo'lish maqsadida birinchi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolaga bir nechta novdani beradi va sindirishni aytadi. Bola osonlik bilan sindiradi. Undan keyin novdalarni dastasi bilan berib sindirish aytiladi, bola esa sindira olmaydi. Bu dastani boshqa bolaga beradi, u ham sindirib bera olmaydi. O'qituvchi xulosalaydi. Biz ham ahil bo'lsak hech kim yenga olmaydi.

Darslikning 35-sahifasidagi rasmlar diqqat bilan kuzatiladi va qaysi rasmda o'quvchilarni do'st deyish mumkinligi aniqlanadi. Undan keyin yoqqan rasmdagi vaziyat yuzasidan suhbatlashiladi.





Shu vaziyatda barcha o'quvchilarga sinfda birgalikda o'qiyotgan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalardagi jismoniy yoki ruhiy muammo uni farqli hisoblamaslikka chaqiriladi. Ularga yordam berish ezgu ish ekanligi tushuntiriladi.

Darslikning 36-sahifasidagi rasmlar asosida o'quvchilarda **“Ahillik”** tushunchasi shakllantiriladi. Rasmda berilgan bolalarning o'zaro munosabati yuzasidan suhbatlashiladi.

Sinfdagi vaziyatni aniqlash maqsadida: “Sinfirmizda bolalar ahilmi”, “Kuchli jamoamizmi?” savollari yuzasidan javob berish uchun mos rasm bo'yaladi.



Ha



Yo'q



Hali
bilmayman



“Birlashgan o'zar birlashmagan to'zar” maqoli darslikda berilgan rasm asosida o'quvchilar bilan birgalikda bajarib ko'rsatiladi. Bu vaziyatda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning ishtirok etishiga ahamiyat beriladi. Bir maqsad yo'lida harakat qilayotgan jamoa hech qachon yengilmasligi tushuntiriladi.

O'quvchilarni turli xil vaziyatlarga tushib qolganda qanday qilib chiqib ketishni o'rgatish uchun turli xildagi holatlar aytiladi. O'qituvchi tushunarli bo'lish maqsadida berilgan barcha vaziyatlar rolga kirib ifodali, shoshilmasdan aytib berilishi lozim.

O'quvchilarning ijodiy qobiliyatini oshirish maqsadida sinf jamoasini birdamligini ifodalaydigan ramz (emblema) o'ylab topib, chizish aytiladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham bajarishi uchun uzoqroq vaqt beriladi hamda birinchilardan bo'lib bajargan o'quvchilarniki namuna sifatida ko'rsatiladi.

“Qo'llarimizni birlashtiramiz” metodikasi

Dars mazmuni barchaga birdek tushunarli bo'lishi uchun **“Qo'llarimizni birlashtiramiz”**  metodikasidan foydalaniladi.

Bolalarga: **“Hamma o'z qo'lini qog'ozga chizsin”** deb ko'rsatma beriladi. Har bir bola o'z qo'lini qog'ozga chizadi va bo'yaydi. So'ngra barcha bolalarning qo'l rasmi bir varaqda birlashtiriladi (yopishtiriladi yoki yonma-yon qo'yiladi). Shundan keyin bolalarga savol beriladi:

Nega biz bitta varaqda birgamiz?, (Javob: Chunki biz bir jamoamiz, birga o'qiyamiz, o'ynaymiz, yordam beramiz).

Mazkur metodika orqali alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar jamoa bo'lishni, oddiy fikrlar orqali tushunishni, yolg'iz emasman, biz birgamiz kabi tushunchalarni o'rganadi.

Mavzu yuzasidan barcha o'quvchilarning darsni qay daraja egallaganligini aniqlash maqsadida:

Endi men.....bilim oldim.

Endi men.....qilaman.

Endi men.....qilmayman., jumalari bilan to'ldiriladi.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onalarining yordami bilan birdamlikni ko'rsatish rasmi ustida ishlanadi.

9-dars. Mustahkamlash

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga berilgan topshiriqlarda xatoliklarga yo'l qo'ysa yana bajarib ko'rish imkoniyatini bering.

O'quvchilardan bugungi kun, oy, yil hamda ob-havo ko'rgazmali qurollar asosida rolga kirib ko'rsatiladi.

Uyga vazifa sifatida berilgan **“Birdamlikni ko'rsatish rasmi”** orqali o'tilgan mavzu mustahkamlanadi, o'quvchilar rag'batlantiriladi.


O'qituvchi vaziyatni o'rganish jarayonini tushunarli bo'lish maqsadida amaliy sahna ko'rinish qilib ko'rsatadi. Dastlab matn ifodali o'qib beriladi.

Bir nafar o'g'il va qiz ishtirokida amalga oshiradi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham to'liq tushunib olishini nazarda tutib ularning ishtiroki ta'minlanadi. Sahna ko'rinish yakunida birovning mehnati doim qadrlanishi ta'kidlanadi. Matn savollar va ularga berilgan mulohazali javoblar bilan mustahkamlanadi.

O'quvchilar bilan guruhlarda ishlash uchun Akmal va Madina ishtirok etadi. Har bir berilgan maslahatlar alohida alohida qilib qog'ozga kesib olinadi. Guruhlar navbat bilan maslahatlarni olib o'qiladi va ma'nosi tushuntiriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga esa maslahatlar yuzasidan fikrlar aytilib bu qaysi berilgan maslahat uchun ekanligini topish so'raladi. Berilgan maslahatlar savollar orqali mustahkamlanadi va har bir o'quvchiga qat'iy shior sifatida amal qilish lozimligi so'raladi.

O'quvchilarni har tomonlama qobiliyatlarini rivojlantirish maqsadida “Maktab” mavzusida master klass tuziladi. Bu jarayonda har qanday takliflar inobatga olinadi, noto'g'ri aytilsa boshqa yana takliflar berish imkoniyati taqdim qilinadi.



Madinaning harakatlari ifodalangan rasm ustida ishlanadi. O'quvchilarga maktab hovlisida qanday ijobiy ishlarni bajarish mumkinligi haqida so'raladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalardan esa Madinaning



harakatlarini og'zaki aytib berish so'raladi. O'qituvchi bu ishni **“Siz ham qila olishingiz mumkin”** deb ta'kidlaydi.

Darslikning 42-43-sahifalaridagi rasmlar asosida berilgan savollarga javob beriladi. Rasmlardagi holat alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga tushunarli bo'lmasa bema'lol so'rash imkoniyati beriladi. Bunda o'quvchi dars

davomida o'rgangan narsalarini, rasmda kimlar tasvirlanganligini, unda qanday belgilar mavjudligini, yashil hududlar haqida tushunchaga ega bo'lishi kerak.

Rasmda ko'rsatilgan har bir belgi alohida alohida qilib qog'ozga chiqariladi va uning asosiy vazifasi aytiladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham belgilarga berilgan ta'rifga qarab alohida qilib chiqarilgan qog'ozlardan qaysi biri ekanligini topa oladigan bo'lishi kerak.

“Men ham qila olaman!” metodikasi

Dars mazmuni yana ham alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga tushunarli bo'lishi uchun **“Men ham qila olaman!”** metodikasidan foydalaniladi. Ko'zlangan asosiy maqsad alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarda o'ziga bo'lgan ishonchni shakllantirish.

Bu uchun bolaga oddiy topshiriq beriladi. Bola bajara oladigan oddiy ish tanlanadi (*Masalan: rasm chizish, kubik qo'yish*). Pedagoglar ishni bosqichma-bosqich bajarib ko'rsatadi. Bola harakat qilib topshiriqni bajarsa, **“Men ham qila oldim!”** degan yorliq berish tavsiya qilinadi. Metodika oxirida hamma birga: **“Men harakat qilsam, uddalayman!”** deb aytadi.

Dars yakunida o'qituvchi barcha o'quvchilar bilan birgalikda hikoya tuzadi va nomlaydi.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onalar bilan birgalikda rasmda berilgan belgilarni daftariga chizish.

10-11-dars. So‘zlashish odobi

Eslatma: Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni jismoniy hamda psixik imkoniyatlarini inobatga olib vazifa berishda ularga uzoqroq vaqt bering. So‘zlashish odobini o‘rgatish ularning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek bu jarayon ularga boshqalar bilan muloqot qilishda muvaffaqiyatli bo‘lishga yordam beradi va jamiyatda o‘z o‘rnini topish uchun asos yaratadi.

O‘quvchilardan bugungi kun, oy, yil hamda ob-havo ko‘rgazmali qurollar asosida rolga kirib ko‘rsatiladi.

Avvalgi darsda o‘tilgan **“Men O‘zbekistonlikman!”** bobi mustahkamlanadi. Darslikning 42-43-sahifalarida uyga vazifa sifatida berilgan belgilar ko‘rsatilib ushbu belgilarga ta’rif berish so‘raladi, o‘quvchilar rag‘batlantiriladi.

Dastlab o‘quvchilardan do‘stlik haqida tushunchalari bilib olinadi. Darslikning 44-45-sahifadagi rasmlar asosida do‘stlik tushunchasining

umumiy ma’nosi ochib beriladi. Unda do‘st bilan doim sirdosh bo‘lish, birgalikda ishlash, barcha boylikda do‘stlikning ustunligi kabilar tushuntiriladi.

Xalqimiz orasida odamni do‘sti bo‘lsa bog‘ining chaman bo‘lishi, do‘st bo‘lmasa bu fe’lning yomonligi aytilishi bejizga emasligi aytiladi.

Dilshod Rajabning **“Sehrli so‘zlar”** she’ri o‘qituvchi tomonidan ifodali o‘qib beriladi, mazmuni tushuntiriladi. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ham tushunishi uchun o‘qituvchi uning kitobidan yonida turib o‘qiydi. She’rdagi sehrli so‘zlar qo‘l bilan bolaga ko‘rsatiladi.

O‘qituvchi yordamida darslikning 46-sahifasida yozilgan har bir sehrli so‘zlar ma’nosi tushuntiriladi. Qanday holatda berilgan sehrli so‘zlar ishlatilishi amaliy mashq qilib ko‘rsatiladi.

Barcha bolalar hamda sehrli so‘zlar ushbu mashg‘ulotda to‘liq

qatnashishi lozim. Undan tashqari mashg‘ulot davomida bu so‘zlar bizga qanday yordam berishi, ma’nodosh so‘zlar haqida ham tushuntiriladi.

Darslikning 47-sahifasida berilgan rasm hamda sehrli so‘zlar asosida savol-javob qiling. Barchaga tushunarli bo‘lish maqsadida sinfda amaliy tashkil qilish ham maqsadga muvofiqdir.



Darslikning 48-sahifasida berilgan har bir xalq o'g'itining ma'nosi tushuntiriladi. Ular orasidan qaysi biri alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga yoqqanligi aniqlanadi va sababi bilib olinadi.



O'qituvchi hozirgi zamonaviy texnologiya asri kirib kelganligini ta'kidlaydi. Asosan odamlar vaqtini kompyuter hamda telefonda o'tkazayotganligini, muloqotda bo'layotganligini, ijtimoiy tarmoqlarda xabarlar yuborilayotganligini aytadi. Biroq telefon suhbatini yoki xabarlar yuzma yuz gaplashishning o'rnini bosa olmasligini, mehr ko'zdaligi, shuning uchun maktabni, yaqinlaringizni, do'stlaringizni qadriga yetish zarurligi tushuntiriladi.



Xalq o'gitlarida xalqimizning azal-azaldan salomlashish odobiga katta ahamiyat bergan. Har qanday vaziyatda gapni **“Assalomu alaykum”** deb boshlash lozimligi, bu o'zbek xalqining boshqa davlatlar havas qiladigan odatlaridan ekanligi aytiladi. Namuna sifatida o'qituvchi qo'llarini ko'ksiga qo'yib salom berib ko'rsatadi.

Darslikning 49-sahifasidagi rasmlar orasidan qaysi qurilma orqali muloqot qilish mumkinligi aniqlanadi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham bilishi uchun rasmdagi qurilmalarni qo'l bilan ushlab ko'rsatish va aynan qaysi biri bilan muloqot qilish imkoniyati borligi ko'rsatiladi.



Mavzuni mustahkamlash maqsadida ikki kishi o'rtasida telefon suhbatini tashkil qilinadi. Suhbatda suhbatni qanday boshlash, qanday so'zlardan foydalanish, telefonda gaplashishning afzalliklari bilan bir qatorda uzoq vaqt gaplashishning salbiy oqibatlari tushuntiriladi.



Maktab va boshqa jamoat joylarida telefonda baland ovozda gaplashmaslik, oila a'zolari, sinfdoshlar bilan gaplashganda, chetroqqa o'tish lozim.

Darsni yakunlashdan oldin og'zaki ravishda quyidagi rasimga qaysi sehrli so'zlar qo'llash mumkinligi aniqlanadi.



“Iltimos, rahmat, kechirasiz” metodikasi

Mazkur mavzu mazmuni alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga yanada tushunarli bo'lishi uchun **"Iltimos, rahmat, kechirasiz"** metodikasi o'tkaziladi. Metodikani o'tkazishdan maqsad bolalarga hurmat bilan madaniyatli gapirish odatini shakllantirishdir.

Buning uchun rasmi kartochkalar (*Vizual qo'llab-quvvatlash*)dan foydalaniladi. Ularda **"Iltimos"**, **"Rahmat"**, **"Kechirasiz"**, **"Salom"**, **"Xayr"** so'zlari yozilgan, rasmi chizilgan kartochkalar tayyorlanadi.

Metodika o'yin shaklida o'tkaziladi (*Rol o'ynash*). O'qituvchi kichik sahna ko'rinishi tashkil qiladi. **Masalan: "Kitobni olib ber, Iltimos". Bola javoban: "Mana, oling, Rahmat". "Men bilmasdan turtib yubordim, Kechirasiz".**

Metodika bolalar juftligida ham tashkil qilinishi mumkin. Har bir bola kartochkani tanlab, unga mos vaziyat ishlatishi zarur bo'ladi.

To'g'ri vaziyatni aytgan har bir bolaga **"Madaniyatli bola"** yorlig'i yoki yulduzcha beriladi.

Bu metodika bolalarga madaniyatli muloqotni o'rgatadi.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onalar bilan birgalikda uy sharoitida sehrli so'zlar bilan muloqot tashkil qilish.

12-13-dars. O'zaro yordam

Eslatma: Maktab jamoasiga alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning qiziqish va qobiliyatlari haqida eng muhim ma'lumotlarni ota-onasi yetkazib beradi. Boshqa (sog'lom) o'quvchilarga alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga yordam ko'rsatishni o'rgatish jamiyatdagi insonparvarlik va bag'rikenglikni rivojlantirish uchun zarur bo'lib, bu jarayon nafaqat yordamga muhtoj bolalar, balki sog'lom bolalar uchun ham katta foyda keltiradi.

O'quvchilardan bugungi kun, oy, yil hamda ob-havo ko'rgazmali qurollar asosida rolga kirib ko'rsatiladi.

Avvalgi darsda o'tilgan **"So'zlashish odobi"** mavzusi uyga berilgan sehrli so'zlar bilan mustahkamlanadi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalardan qanday sehrli so'zlardan uyda foydalanilganligi aniqlanib rag'batlantiriladi.

Darslikning 51-sahifasidagi rasm asosida kuch birlikda ekanligi shuni natijasida Jasur raketani tezda yasab qo'yganligi aytiladi.

Shu o'rinda har bir alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan birga o'tirgan partadoshlarini yordam berishi yaxshilik ekanligi, o'zini bilimi yanada oshishi tushuntiriladi.

Har qanday vazifani birgalikda qilish ijobiy natijalar berishi ta'kidlanadi.

O'qituvchi o'quvchilardan qayerda yashashini so'raydi. Ota-onasi yoki bobobuvisidan hashar deb eshitganligi aniqlanadi. Undan keyin odamlarning bir-biriga ko'mak berishi yordam deyilishi, xalqimiz qadimdan hamma katta ishlarni birgalikda hashar yo'li bilan qilishi, qo'ni qo'shnilar kelishib bir-birini qo'llashi, zarur vaqtda yordam berish lozim.

Birgalikda vaziyatni o'rganamiz. Bunda Nodira sinfda navbatchilik qilganda Madina yo'q demasdan yordam berganligi e'tirof etiladi.



Madina ham navbatchi bo'lganda Nodira yordamga tayyor turishi lozim bo'ladi. Bu haqiqiy o'zbekona yaxshi odatdir.

O'qituvchi dars davomida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni doim o'zi uchun yordamchi sifatida olishi va shu orqali vatanparvarlik ruhida kamol topishiga zamin yaratib keladi.

Vaziyatni o'rganib fikrimizni bildiramiz.

O'qituvchi barchani diqqatini darslikning 53-sahifasidagi rasmga qaradi. Unda qattiq shamol bo'lishi natijasida daraxtni shoxi sinib, yo'lni to'sib qo'yganligi tasvirlangan.

Akmal uni chetga olishga harakat qilishi, ammo kuchi yetmaganligi ko'rsatiladi. O'rtoqlarining yordamga kelishi natijasida yo'lni shoxlardan olib tashlaydi.



Barcha alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar qatorida barcha o'quvchilarga yanada tushunarli bo'lish maqsadida savol-javob asosida mustahkamlanadi. Har qanday vaziyatda yordam kerak bo'lsa so'rash lozimligi aytiladi.

Darslikning 54-sahifasidagi **“Birgalikda uddaladik”** matni ustida ishlanadi. Bu jarayon qiziqarli hamda tushunarli bo'lishi uchun amaliy bajariladi. O'qituvchi rangli sharlarni olib keladi va o'quvchilarga puf lab ismini

yo'zishni aytadi. Sharlar maktab hovlisiga olib chiqiladi, natijada aralashib ketadi. 3 daqiqa ichida barcha o'z ismi yozilgan sharni olib kelish aytiladi, lekin ulgurishmaydi.

Shunda o'qituvchi hamma ushlagan sharini ismi yozilgan tengdoshiga berishni aytadi va ikki daqiqa ichida barcha shar o'z egasini topadi. Alohida ta'lim ehtiyojlari

bo'lgan bolalar har bir sharning rangini hamda yozilgan ismini aytishi so'raladi.

Bu mashg'ulot davomida o'quvchilarga boshqa shaxslarga yordam bera olish imkoniyati mavjudligi tushuntiriladi. Odam qo'lidan kelsa faqat shaxslarga balki o'simliklarga, hayvonlarga ham yordam berishi rasm asosida tushuntiriladi. Aynan shu siz o'qiyotgan inklyuziv ta'lim sinfi ham ushbu yordam berishning namunasi deb aytishi lozim. Rasmdagi har bir holat alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ham atroflicha tushuntiriladi.



Har xil qismlarga bo'lib berilgan rasmlar asosida voqea shakllantiriladi. Bu alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ham tushunarli qilish maqsadida har bir qism alohida alohida qilib qismlarga bo'lib tayyorlanadi va mazmuni tushuntiriladi.



“Do‘stimga yordam beraman” metodikasi

Mazkur **“O‘zaro yordam”** darsi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga yanda tushunarli bo'lishi uchun **“Do‘stimga yordam beraman”** metodikasidan foydalaniladi. Ko'zlangan maqsad bolalarda hamjihatlik, mehr-oqibat va boshqalarga yordam berish kabi ijobiy odatlarni shakllantirishdir. Bu uchun oddiy topshiriqlar tayyorlanadi (*juftlikda*). Masalan: rasm bo'yash, kubik terish, qog'ozni yig'ish va hokazo. Topshiriq davomida bolaga yolg'iz bajarish qiyin bo'lishini unga yordam kerak bo'lishi his qildiriladi. Undan keyin har bir bola tengdoshi bilan ishlaydi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga yordam bergan bola haqida o'qituvchi ijobiy fikr bildiradi. Qarang, Aziza do'stiga yordam berdi. Unda endi nima deymiz, ha bolajonlar to'g'ri aytdingiz **“Barakalla!”** deb aytamiz. Azizaga **“Yordam qo'li”** belgisi rasmi tushirilgan kartochka beriladi.

Metodika yakunida **“Bugun kimga yordam berding?”**, **“Kim senga yordam berdi?”** kabi savollar beriladi.

Bu metodika orqali bolalar bir-biriga mehr bilan qarashni, yolg'iz emasligini his qilishni o'rganadi.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onalar bilan birgalikda **“Biz kimga yordam bera olamiz”** savoli ustida ishlanadi.

14-15-dars. Minnatdorlik

Eslatma: O'qituvchi har bir alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni dars jarayonida o'ziga yordamchi sifatida olishi lozim. Minnatdorlik tushunchasini o'rgatish bolalarning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishi uchun muhim bo'lib, ularning boshqalar bilan muloqotini yaxshilash, ijobiy munosabatlarni shakllantirish va jamiyatda o'z o'rnini topishiga yordam beradi.

O'quvchilardan bugungi kun, oy, yil hamda ob-havo ko'rgazmali qurollar asosida rolga kirib ko'rsatiladi.

O'tilgan **“O'zaro yordam”** mavzusi uyga berilgan Biz kimga yordam bera olamiz savoli bilan mustahkamlanadi. Har o'quvchi qatorida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham odamlardan


tashqari qanday hayvon va o'simliklarga yordam bera olishini aytishi kerak.

Darslikning 56-sahifasida berilgan QK orqali barcha video barcha bolalarga qo'yib beriladi. Ota-onalarni ham qanday mavzu o'tilganligidan xabardor qilish maqsadida darslikning ushbu imkoniyati aytiladi.

Berilgan xalq o'giti ifodali o'qib beriladi va mazmuni tushuntiriladi.

Barcha o'quvchilarni kimdan nima uchun minnatdorligini aniqlash maqsadida

quyidagi sxema to'ldirilishi aytiladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar yozmasdan og'zaki aytish imkoniyatini berish mumkin.



Mazkur topshiriq: **“Qanday hollarda, minnatdorlik bildiriladi, hayotda kimlardan minnatdorsiz, minnatdorlikni qaysi so'zlar bilan bildirasiz, noshukurlik qanday oqibatlariga olib kelishi mumkin”** kabi savollar bilan mustahkamlanadi.

O'qituvchi tomonidan minnatdorlik bu yaxshilikni bilish ekanligi tushuntiriladi. Shu o'rinda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga har tomonlama yordam berib kelayotgan o'rtog'iga minnatdorlik yuzasidan rahmat aytishi so'raladi.

Rasm va matn asosida vaziyat o'rganiladi va o'quvchilarda maqbul tushuncha hosil qilinadi.

Savollar asosida vaziyatda gavdalantirilgan jarayonlar mustahkamlanadi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalardan bolalarning o'rnida bo'lganda qanday ish tutishi so'raladi. Bergan javobiga qarab



tushunganlik darajasi aniqlanadi. Zarur bo'lsa yana bir marta takroran tushuntiriladi.



Barcha o'quvchilarga tushunarli bo'lishi uchun vaziyatni o'rganishda davom etamiz. Rasmda berilgan tasviriy san'at darsida Akmalning qalami sinib qolishi va unga Azizaning yordam berishi o'rganiladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ham tushunarli bo'lishi uchun bu jarayon amaliy bajarib

ko'rsatiladi. Qalamini chiqarib bergan o'quvchiga rahmat aytiladi.



har qanday vaziyatda ham yordam bergan o'quvchiga minnatdorlik bildirish (rahmat aytish);

o'zimiz ham boshqalarga qo'limizdan kelgancha yaxshilik qilishimiz lozim.

Barcha o'quvchilarning diqqatini oshirish maqsadida bulut ichidagi so'zlardan qachon ishlatilishi haqida suhbat tashkil qilinadi.

O'qituvchi har bir so'zni ko'rsatadi va o'qiydi. O'quvchilar har bir ko'rsatilgan so'zni qachon ishlatilishini aytadi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ham tushunarli bo'lish maqsadida har bir so'zning ma'nosi yuz emotsiyalari orqali ko'rsatiladi.



O'tilgan dars mashg'uloti yuzasidan o'quvchilar fikrini bilish uchun quyidagi smayliklar bo'yaladi.

Dars qiziqarli bo'lsa	Dars mazmuni tushunarli bo'lsa

“Rahmat aytaman!” metodikasi

Bu dars alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga qiziqarli va tushunarli bo'lishi uchun **“Rahmat aytaman!”** metodikasidan foydalaniladi. Ko'zlangan asosiy maqsad bolalarda minnatdorlik tuyg'usini shakllantirish va uni ifoda etishga o'rgatishdir.

Bu uchun vaziyatli rasm ko'rsatish (3 daqiqa) usulidan ast qotadi. Bola sovg'a olyapti, kimdir yordam beryapti, ota-ona ovqat tayyorlayapti kabi jarayonlar tasvirlangan rasmlardan foydalaniladi.

Bolalarga savol beriladi. **“Bu kabi holatlarda nima deyish kerak?”**. Javob esa **“Rahmat!”**. Yanada tushunarli bo'lishi uchun rol o'ynaladi (5 daqiqa). O'qituvchi: **“Mana bu kitobingni topib berdim”** deb aytadi. Bola esa **“Rahmat!”** deb javob beradi.

Bolalar juftlikda bir-birlariga kichik yordam berishadi va yakunda **“Rahmat”** deyishadi.

Shunigdek **“Rahmat yuragi”** o'yini (5 daqiqa) tashkil qilinadi. Har **“Rahmat”** so'zi uchun yurak shaklidagi kartochka olinadi va devorga yopishtiriladi. Haftaning oxirida eng ko'p yurak to'plagan bola maqtovga sazovor bo'ladi.

Natijada ❁ bola oddiy hayotiy vaziyatlarda **“Rahmat”** aytishni odat qiladi va minnatdorlikni ifoda etishni o'rganadi.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onalar bilan birgalikda qanday holatda minnatdorlik bildirilishi haqidagi so'zlar va ularning ma'nosi yod olinadi.

16-dars. Mustahkamlash

Eslatma: Sog'lom o'quvchilarning otalari hech qachon farzandining sinfida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni borligidan farzandining o'zlashtirish darajasi tushib ketishidan xavotirga tushmasligi, lozim. Tajribalar buning aksini ko'rsatadi.

O'quvchilardan bugungi kun, oy, yil hamda ob-havo ko'rgazmali qurollar asosida rolga kirib ko'rsatiladi.

O'tilgan **“Minnatdorlik”** mavzusi uyga berilgan qanday holatda minnatdorlik bildirilishi haqidagi so'zlar va ularning ma'nosi bilan mustahkamlanadi.

O'quvchilarni darsga tayyor bo'lib turganidan foydalanib diqqatini yozish bilan bog'liq topshiriqqa qaratiladi. Bunda sehrli so'zlarni, minnatdor bo'lganda qaysi so'zlarni ishlatish, **“Xayr”** so'zini qaysi so'z bilan almashtirish mumkinligi yoziladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga savol sifatida berib og'zaki javob berish imkoniyati ham taqdim qilinadi.


Berilgan vazifani yanada mustahkamlash natijasida so'zlar beriladi. O'quvchilar ular orasidan **“Sehrli so'zlar”**ni belgilash zarur bo'ladi. Yanada tushunarli bo'lishi uchun amaliy mashqlar bilan ko'rsatiladi.

- | | |
|-------------------|---------------------|
| ○ Salom | ○ Omadsiz |
| ○ Salomat bo'ling | ○ Ko'rishguncha |
| ○ Xayr | ○ O'zing shunaqasan |
| ○ Yaxshimisiz? | ○ Xayrli kun |
| ○ Rahmat | ○ Kechirasiz |
| ○ Iltimos | ○ Minnatdorman |

O'qituvchi **“Yordam”** tushunchasi haqida ta'rif beradi. O'quvchilarga ham boshqa shaxslar tomonidan yordam berish mumkinligi, qolaversa o'quvchilar ham boshqa shaxslarga, hayvonlar hamda o'simliklarga ham yordam berishi mumkinligini aytadi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ham tushunarli bo'lishi uchun bir nechta misollar bilan tushuntiriladi. Undan keyin **“Yordam”** mavzusida klaster tuziladi.

O'qituvchi darslikning 61-sahifasida berilgan xalq o'gitlarini ifodali o'qib beradi. Har birining mazmuni bilan alohida ishlaydi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ham tushunarli bo'lish maqsadida tabiiy resurslar bilan bog'lab mazmunini ochib beradi.



O'quvchilarning o'zlashtirish jarayonini aniqlash maqsadida bugungi darsda o'rganilgan ma'lumotlarni gapirib berish so'raladi. Barcha o'quvchilar qatorida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham **"Sehrli so'zlar"**, **"Yordam"**ga oid so'zlardan namunalar aytib berishi, xalq o'gitlarini mazmuni haqida gapira olishi lozim.



Rasm asosida savol-javob tashkil qilinadi. Rasmda qaysi fasl tasvirlanganligi, bolalar nima uchun qalin kiyim kiyib olganligi, nima yasalayotganligi, o'ynalayotgan o'yin haqida so'raladi.

Rasmda berilgan ma'lumotlar yanada tushunarli bo'lishi tabiat bilan uyg'unlikda ishlanadi.

O'quvchilarning fikrlash qobiliyatini oshirish maqsadida rasm asosida hikoya tuziladi.

Ushbu hikoya asosida o'quvchilarga:

Qishda qanday kiyinish kerak?

Yo'llar nima uchun qordan tozalanadi?

Qishda bolalar qanday o'yinlarni o'ynaydi?

O'yin chog'ida nimalarga ahamiyat berish kerak?

Qishda kasal bo'lmaslik uchun nima qilish kerak? kabi savollarga javob berilishi kerak.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onalar bilan birgalikda **"Sehrli so'zlar"**, **"Yordam"**ga oid so'zlardan namunalar hamda xalq o'gitlaridan ikkitasini yod olib kelishi lozim.

Men va fazilatlarim

17-18-dars. Ishonch nima?

Eslatma: Sinflarda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning bo'lishi o'zlariga o'xshamagan tengdoshlari, ularning hayoti, ehtiyojlarini his qilish, tengdolariga g'amxo'rlik hissi uyg'onishiga sababchi bo'ladi. Bolalarga ishonch tushunchasini o'rgatish ularning nafaqat o'zlariga, balki atrof-muhitga bo'lgan ishonchni mustahkamlashda ham yordam beradi. Bu jarayon individual yondashuv va moslashtirilgan usullarni talab qiladi.

O'quvchilardan bugungi kun, oy, yil hamda ob-havo ko'rgazmali qurollar asosida rolga kirib ko'rsatiladi.

Uyga berilgan **“Sehrli so'zlar”**, **“Yordam”**ga oid so'zlardan namunalar hamda xalq o'g'itlari ustida ishlanadi. Barchaga qiziqarli va diqqatini tortadigan bo'lishi uchun amaliy rolga kirib ko'rsatish so'raladi va rag'batlantiriladi.

Darslikning 64-sahifasidagi Po'lat Mo'minning **“Oftob va odob”**

she'ri ifodali o'qiladi.

She'r mazmuni tushunarli bo'lishi uchun O'zbekiston serquyosh o'lka deb bejizga aytilmasligi, o'zbek xalqi o'zining odobi madaniyati bilan boshqa xalqlar havas qiladigan darajada ekanligi tushuntiriladi. Barcha o'quvchilar ushbu she'rni yod olishi lozim.

Barcha o'quvchilarning diqqatini jalb qilish maqsadida o'qituvchi darslikning 66-sahifasida berilgan QK yordamida kichik video namoyish qilinadi. Video yuzasidan o'quvchilarning fikr-mulohazalari o'rganiladi.

Azizbekning o'rnida qanday yo'l tutishi haqida o'quvchilarning fikrlari eshitiladi.

O'qituvchi yordamida vaziyat o'rganiladi. Madina, Nozima va Mashhura yaqin dugonalar ekanligi, Madina bir sirni dugonalaridan Mashhura va Nozimaga aytganligi ammo Mashhurani boshqaga aytib qo'yganligi, Nozima esa hech kimga aytmaganligi haqida tushuntiriladi.

Matn to'liq tushunarli bo'lishi uchun savollar bilan:

Madinaning sirdoshi kim ekan?

Sirni kimga aytgan ma'qul?

Sizning haqiqiy do'stingiz kim, uni sirini saqlay olasizmi (alo-hida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalardan ham bilib olish maqsadga muvofiq) kabilar bilan to'ldiriladi.

O'qituvchi **“Ikki o'rtoq va ayiq”** matnini ifodali o'qib beradi. Hikoya orqali o'quvchilarga haqiqiy do'st boshga og'ir musibat tushganda bilinishi tushuntiriladi.



Bolalardan qaysi biri yomon ish qilganligi xususida soʻraladi.

Alohida taʼlim ehtiyojlari boʻlgan bolalar rasmga qarab jarayonni aytib bera oladigan boʻlishi lozim.

Darslikning 67-rasm asosida “Ishonch” tushunchasi haqida oʻrgatiladi. Ishonch asosida boshqa munosabatlar shakllanishi tushuntiriladi.



Har bir rasm mazmuni tabiat bilan bogʻlab ochib beriladi.

Rasmdagi qaysi holatni tabiiy hayoda koʻrganligi oʻquvchilardan soʻraladi va javoblariga

qarab “**Ishonch**” tushunchasi bilan toʻldiriladi.

Oʻquvchilarning ishonch tushunchasini mustahkam ham yozish qobiliyatini rivojlantirish maqsadida rasmga oʻzi ishonadigan insonlarning ismini yozish soʻraladi. Nima sababdan ularni tanlaganligi muhokama qilinadi.



Uyga vazifa beriladi. Alohida taʼlim ehtiyojlari boʻlgan bolalar ota-onalar bilan birgalikda “**Ishonch**” soʻzi ishtirokida gaplar tuzishadi. Bu tuzilgan gaplar maʼnosi oʻrganib kelinadi.

_____ sazovor boʻldi.
_____ oqlayapti.
_____ bildiradi.
_____ hosil qildi.
_____ qozonyapti.

Vaziyatni oʻrganib ijobiy va salbiy natijalardan yuzasidan maʼlumotlar olinadi. Darslikning 68-sahifasidagi matn asosida ishlanadi. Unda oʻqituvchi tomonidan Sabina va Munisaga gullarga qarab turish vazifasi berilganligi ammo Munisa gullarni sugʻormasligi natijada gullar soʻlib qolganligi haqida aytiladi.

Barcha oʻquvchilarga tushunarli boʻlish maqsadida xonadagi gullar misolida ham amaliy tushuntiriladi.

Xonadagi gullarni inson salomatligida tutgan oʻrni ham aytib oʻtiladi.

Matn tushunarli boʻlganligini aniqlash maqsadida qizlar vadani bajarganligi, qaysi biri ishonchni oqlaganligi, qanday qilib ishonch qozonish mumkin kabi savollar bilan mustahkamlanadi.



Barcha o'quvchilar qatorida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham xonadagi gullar gullab yashnashi uchun mas'ulligi ta'kidlanadi.

Guruh bo'lib ishlash maqsadida qismlarga bo'lingan gaplar mazmuniga moslab yozing.

Hayot va ishonchni

hech narsa bilan qaytara olmaysiz.

Ishonchni yo'qotsangiz

faqat bir marta yo'qotadilar.

O'tilgan mavzu yuzasidan o'quvchilarning fikrlarini bilish maqsadida:

Dars qiziqarli bo'lsa	Dars mazmuni tushunarli bo'lsa
 	 

“Men ishonaman – men uddalayman!” metodikasi

Ushbu mavzu yanada tushunarli bo'lishi uchun **“Men ishonaman – men uddalayman!”** metodikasidan foydalaniladi. Ko'zlangan asosiy maqsad bolalarda o'ziga va boshqalarga ishonchni shakllantirishdir. Bu uchun **“Ishonaman”** iborasi bilan boshlanadigan (2 daqiqa) gaplardan foydalaniladi.

O'qituvchi aytadi: **“Men o'zimga ishonaman – men gapira olaman!”**.

Bola: **“Men o'zimga ishonaman – men rasm chiza olaman!”**.

Har bir bola biror oddiy ishni aytib, o'ziga ishonishini bildiradi. Bola oddiy ishni mustaqil bajaradi (*Masalan: bo'yash, tugma bosish, turib aytish*). Bola bajarib bo'lishi bilan, o'qituvchi aytadi: **“Mana, o'zinga ishonib harakat qilding va uddalading!”**.

Shunigdek, **“Ishonch doirasi”** o'yini (5 daqiqa) o'tkaziladi. Dumaloq chiziq (doira) ichida har bir bola navbat bilan turadi va aytadi: **“Men o'zimga ishonaman, chunki...”**. Masalan: **“Men o'qishni o'rgandim”, “Men yordam so'ray olaman”**.

Metodika yakunida barcha birgalikda: **“Ishonch – bu jasorat va harakatdir!”** deb aytadi.

Natijada bolalar o'z qobiliyatiga ishonishni, harakat qilish orqali muvaffaqiyatga erishishni anglaydi.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onalar bilan birgalikda nuqtalar o'rni to'ldiriladi.

Endi men.....bilim oldim.

Endi men.....qilaman.

Endi men.....qilmayman.

19-20-dars. Men mustaqil bo‘laman

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar umumta'lim maktablariga qabul qilinish natijasida o'zini barcha bilan bir xil his qila boshlaydi, ilgari sezilmagan imkoniyatlari ochiladi, yotsirash, yakkalanish kabi xususiyatlari yo'qoladi.

O'quvchilardan bugungi kun, oy, yil hamda ob-havo ko'rgazmali qurollar asosida rolga kirib ko'rsatiladi.

Barcha o'quvchilar qatori alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar **“Ishonch”** haqida egallagan tushunchalari haqida gapiradi. O'qituvchi tomonidan rag'batlantiriladi.

Darslikning 70-sahifasida berilgan QK orqali videolavhalar barcha bolalarga qo'yib beriladi.

Zarining xatti-harakatlari kuzatiladi. O'quvchilar ham uyda qanday vazifalar bilan shug'ullanishi haqida fikrlari eshitiladi.

O'quvchilardan Zarina kabi mustaqil bo'la olishi haqida so'raladi.

Rasmda berilgan bolalarga ism qo'yiladi va qanday ishlar qilayotganligi tushuntirib beriladi.



Gullarni parvarishlayapti



Kitob o'qiyapti



Kiyimlarni taxlayapti



Uy vazifasi bajaryapti



Idishlarni yuvyapti

Topshiriq bolalar qanday ishlarni mustaqil bajaryapti, siz qanday ishni mustaqil bironing yordamisiz bajara olasiz, maktabga tayyorgarlik ko'rishda sizga kim yordam beradi kabi savollar bilan mustahkamlanadi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham bevosita jarayonda ishtirok etish uchun bolalarga ular ism aytishini, berilgan rasm va uning ta'rifi chalkashtirib bir biriga moslab qo'yish kabi vazifalarni bering.



Darslikning 71-sahifasida berilgan yodda tutish zarur bo'lgan eslatmalarni barcha o'quvchilarga mazmuni to'liq tushuntirilish, ota-onalari bilan hamkorlikda uy sharoitida ham amaliy ko'rsatib mustahkamlanishi lozim.

Madina va Aziza haqidagi matn ifodali o'qiladi, mazmuni tushuntiriladi.

Vaziyat berilgan savollar asosida yanada ochiqilanadi. O'quvchilarni maktabga tayyorgarlik ko'rishda kim yordam berishi, maktabga chiqishni boshlagan kunidan boshlab qaysi ishlarni uyda o'zi mustaqil bajarayotganligi aniqlanadi.

Aniqlangan bo'shliqlar yuzasidan amaliy ko'rsatmalar beriladi.

72-sahifadagi og'zaki topshiriq barcha o'quvchilar bilan birgalikda amalga oshiriladi. Berilgan rasm katta qilib chiqarilib sinf doskasiga ilib qo'yiladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham to'liq ishtirok etishi uchun harakatlar ketma-ketligini bajarish uchun o'qituvchiga yordamchi sifatida belgilanadi.



O'qituvchi yordamida kun tartibiga amal qilish yuzasidan berilgan matn ifodali o'qib beriladi.

Barcha o'quvchilarga ovqatlanishdan oldin qo'llarni yuvish, kuniga tishni ikki marta tozalash lozimligi ta'kidlanadi.



O'qituvchi uxlasdan oldin o'ynash tavsiya qilinmasligi, uzoq vaqt televizor yoki kompyuter ekrani qarshisida o'tirish, soatlab planshet yoki telefon o'yini o'ynash mumkin emasligini tushuntiradi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham to'liq tushunishi uchun aytib o'tilgan ishlar mumkin emasligi yozilgan so'zlar ustiga mumkin emas ishorasini ko'rsatadigan belgilar qo'yiladi.

Darslikning 73-sahifasida berilgan har bir rasmni tushuntirib mustaqil yoki kattalar yordamida bajarishini ajratib ko'rsating.

Har bir rasm barcha bolalarga tushunarli bo'lishi uchun har birini alohida alohida qilib kesib olib, o'quvchilarning qo'lga berib mazmuni haqida aytish so'raladi.

Bu berilgan ishlar mustaqil yoki kattalar yordamida bajarishini aytadi.



Jasur va Akmal obrazlari orqali vaziyat o'rganilib, ijobiy va salbiy tafsilotlar muhokama qilinadi.

Bolalardan qaysi biri mas'uliyatli ekanligi, siz ham mas'uliyatli bo'la olasizmi kabi savollar bilan mustahkamlanadi.



Uyda bobo va buvijonlarimiz bizdan doim xavotir olishi eslatib o'tiladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni ham vaziyatga olib kirish uchun **“Sen Jasurni o'rnida bo'lganingda nima qilgan bo'lar eding”** deb so'raladi.

O'qituvchi o'quvchilarni mustaqil bo'lishga chaqirishi, shuningdek, qilgan ishiga o'zi javobgar ekanligi aytiladi. Bu mas'uliyat deb ataladi.

O'quvchilarga tushunarli bo'lishi uchun **“O‘z vaqtida bordim, uy vazifasini bajardim, kitobni o‘z vaqtida qaytardim, uy hayvonlariga ovqat berdim, ukamga qaradim, onamga yordamlashdim”** kabi so‘zlar yordamida mas’uliyat bilan qilgan ishlardan misollar keltiriladi. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar o‘qituvchi yordamida misollar aytadi va mazmuni tushuntiradi. Har bir ishni mas’uliyat bilan qilish natijasida qolgan shaxslarning ishonchini oshishiga sabab bo‘lishi ta’kidlanadi.



Dars qiziqarli bo'lsa	Dars mazmuni tushunarli bo'lsa
 	 

“O‘zim bajardim!” metodikasi

Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar mazkur darsni yanada tushunishi uchun **“O‘zim bajardim!”** metodikasidan foydalaniladi.

🌀 Maqsad bolalarda oddiy vazifalarni o‘zi mustaqil bajara olishga ishonchini uyg‘otish va bu odatni shakllantirishdan iborat. Bu oddiy mustaqil topshiriq tanlash (5 daqiqa) bilan boshlanadi. Masalan: daftarni ochish, qalamni olish, rasm bo‘yash.

Bola topshiriqni o‘zi bajara olsa, o‘qituvchi aytadi: **“Ajoyib, o‘zing bajarding!”**.

“Kim mustaqil bajardi?” savoli (3 daqiqa) ustida ishlanadi. O‘qituvchi savol beradi: **“Bugun kim darslikni o‘zi oldi?”**, **“Kim yordam so‘ramasdan o‘zi chizdi?”** kabilar.

Har bir alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar javob beradi va o‘zini baholaydi.

Mustaqil harakat qilgan bolaga medalcha (Mustaqillik medalchasi) yoki yulduzcha beriladi.

Bola medalni devorga yopishtirib qo‘yadi: **“Men bugun mustaqil bo‘ldim!”** deb aytadi.

Natijada bola kichik bo‘lsada muhim ishlarni o‘zi bajarishni boshlaydi, yordamga emas, o‘z kuchiga tayanishni o‘rganadi.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ota-onalar bilan birgalikda mas’uliyatni bildiradigan so‘zlar ishtirokida gaplar tuziladi.

21-22-dars. Halollik

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar umumta'lim maktablariga qabul qilinish natijasida o'z imkoniyatini o'zi uchun kashf etish, mustaqil harakatlanish, birgalikda, hamkorlikda ishlash, dunyoqarashi kengayishi, hayotiy tajribalarini oshishiga olib keladi.

O'quvchilardan bugungi kun, oy, yil hamda ob-havo ko'rgazmali qurollar asosida rolga kirib ko'rsatiladi.

O'quvchilardan uyga berilgan ota-onalar bilan birgalikda mas'uliyatni bildiradigan so'zlar ishtirokida tuzilgan gaplar eshitiladi. Har bir tuzilgan gapning ma'nosi haqida suhbat qilinadi.

O'qituvchi **“Gul o'stira olmagan bola”** nomli Koreys xalq ertagini o'qiydi, ma'nosini tushuntirib beradi. Kimlar yolg'on gapirdi, kim rost gapirdi. Nega Suir ismli bolaning urug'idan gul o'sib chiqmadi, qaynatilgan urug'lar qancha parvarish qilinmasin o'smasligini sababi tushuntiriladi. O'quvchilarning mustaqil fikrlarini bilish maqsadida dono qirol Suirni tanlaganini so'raydi.

Har qanday vaziyatda ham rost gapirish lozimligi ta'kidlanadi.



Ertak nima uchun bolalar qirolni aldamoqchi bo'lishdi, haqiqatni aytish yolg'on gapirishdan ko'ra osonmi savollari bilan mustahkamlanadi.

Darslikning 77-sahifasida berilgan xalq o'g'itlari o'qib beriladi, mazmuni ustida ishlanadi, 2 tasi yod olinadi.

Barcha o'quvchilarni faolligini oshirish maqsadida guruhlarda ishlanadi. Raqamlar ketma-ketligini to'g'rilab, berilgan harflardan so'zlar yasang.

3	8	2	1	4	9	6	5	7	11	10
g'	z	o'	t	r	l	s	i	o'	k	i

6	2	9	8	1	3	7	4	10	5
i	a	i	l	s	m	y	i	k	m

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar tushunishi uchun jadvalda berilgan raqam hamda harflarni qog'oz bo'laklariga yozib alohida alohida kesib olinadi. Raqamlar ketma-ketligiga moslangan berilgan harflardan yasalgan so'zlarni o'qiydi. O'qituvchi hosil bo'lgan so'zlarni ma'nosini ochib beradi.

Guruh mashg'ulotlari yakunlangandan keyin yozma topshiriq beriladi. Bunda berilgan so'zlardan rostgo'ylikka ma'no jihatdan yaqin va qarama-qarshi bo'lgan so'zlar belgilanadi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham to'liq tushunishi berilgan so'zlar qog'ozlarga yozib olinadi va rostgo'ylikka ma'no jihatdan yaqin so'zlar bir tomonga, qarama-qarshi bo'lgan so'zlar ikkinchi tomonga qo'yiladi.

- ☐ Haqiqat
- ☐ Yolg'on
- ☐ Samimiy
- ☐ Halol
- ☐ Ochiqko'ngil
- ☐ Adolat
- ☐ Aldoqchi
- ☐ Qo'rqqoq



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onalar bilan birgalikda yolg'onchilik hamda rostgo'ylik haqida maqollar topib yozib kelinadi. Har bir maqolning ma'nosini tushuntiradi.


Uyga berilgan yolg'onchilik hamda rostgo'ylik haqida maqollar tekshiriladi va har birining ma'nosi haqida so'raladi.

O'quvchilarning diqqatini jalb qilish hamda fikrlashini oshirish maqsadida muammoli vaziyat tashkil qilinadi.

Faraz qiling do'stingiz uyga berilgan vazifani bajarmaganligi uchun ikki baho oldi. Buni yaqinlaridan yashirmoqchi ekanligini aytdi. Bu vaziyatda siz do'stingizga qanday maslahat berasiz?

O'qituvchi o'quvchilarga har qanday vaziyatda ham rost gapirish lozimligini, hozir vaziyatdan chiqib aytilgan yolg'on bir kuni oshkor bo'lib uyalib qolish mumkinligini aytadi. Xalqimiz orasida **“Rostgo'ylik nafaqat so'zda, balki amalda ham bo'lishi lozim”** deb ta'kidlamagan.

O'quvchilar bilan vaziyat o'rganilib ijobiy xulosa beriladi. Aka ukasining xonasiga kirib darsini qilib bo'lganligini so'raydi. Ukasi esa qilmagan bo'lsa-da ha deb javob beradi. Akasi esa agar qilmagan bo'lganingda ko'chaga futbol o'ynagani chiqmasdan darslarga yordam berar edim deb aytadi. Ukasi gapirgan yolg'onidan pushaymon bo'lib darslarini o'zi tayyorlaydi.



Vaziyat alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ham tushunarli bo'lish maqsadida uyda berilgan vazifalarni bajarishda kimlar yordam berilishi so'raladi. Har qanday vaziyatda rost gapirish lozimligi ta'kidlanadi.

Ko'rib chiqilgan vaziyat quyidagi savollar:

Akasi nega ukasidan uy vazifasi haqida so'ragani, to'g'ri so'zlik ukasiga qanday yordam berishi kabi tushunchalar orqali mustahkamlanadi.

Yolg'onchilik qanday oqibatlarga olib kelish mumkinligi aytiladi.

Dars yuzasidan o'quvchilarning fikrini bilish maqsadida:

Dars qiziqarli bo'lsa	Dars mazmuni tushunarli bo'lsa
 	 

“To'g'risini aytaman – halol bo'laman” metodikasi

Mazkur dars **“To'g'risini aytaman – halol bo'laman”** metodikasi orqali mustahkamlanadi.



Ko'zlangan maqsad 🎯 bolalarda rostgo'ylik, halollik va o'z xatti-harakatlari uchun javobgarlikni his qilish ko'nikmasini shakllantirishdir.

Rasmi voqeani muhokama (3 *daqiq*a) qilinadi. Masalan: bola qalam sindirib qo'ydi. Savol: **“U nima qilishi kerak edi?”**. To'g'ri javob: **“To'g'risini aytishi kerak edi”**.

Shundan kelib chiqib **“Men rostini aytaman”** o'yini (5 daqiqa) tashkil qilinadi. Har bir bola kichik holatni aytadi (Masalan: **“Men bugun uy vazifasini unutdim”**). Bolani javobiga qarab o'qituvchi tomonidan rag'batlantiradi. **“Halol bo'lding – barakalla!”** deb aytadi.

Rost gapirgan bolalarga yurak shaklidagi (*Halollik yuragi*) belgilar beriladi.

Belgilar doskaga yopishtiriladi: **“Bu halol yuraklar!”** belgisi deb aytiladi.

Natijada bola rost gapirish, noto'g'ri ish qilganda tan olish va halollikni qadrlashni o'rganadi.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onalar bilan birgalikda berilgan gaplar to'ldiriladi.

To'g'ri so'zlashga yordam beradi.

To'g'riso'z bo'lishimiz kerak, chunki

To'g'riso'z inson doim.....

23-24-dars. Asrab avaylaymiz

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar umumta'lim maktablarida bo'lishi boshqa sog'lom bolalarga imkoniyati cheklangan shaxslarga pozitiv munosabat, o'zaro hurmat ruhi tarbiyalanadi, yoramga muhtoj insonlarga e'tibosizlik qilmaydigan shaxsga aylanishiga olib keladi. Asrab-avaylash tushunchasini o'rgatish ularning atrof-muhitga, odamlarga va o'z sog'lig'iga nisbatan mas'uliyatni his qilishlariga yordam beradi.

O'quvchilardan bugungi kun, oy, yil hamda ob-havo ko'rgazmali qurollar asosida rolga kirib ko'rsatiladi.

O'quvchilardan uyga berilgan ota-onalar bilan birgalikda to'g'riso'zlik haqidagi topshiriq ustida ishlanadi.

O'qituvchi o'quvchilarga doim tabiatni, o'zi o'qiyotgan maktab mulkini, shaxsiy buyumlarini asrab-avaylashi zarurligi ta'kidlaydi.

Ko'pchilik o'quvchilarning odobini shundan bilib olishadi.

Tejamkorlik ziqnalik emas, isrofgarchilikning oldini olish ekanligini tabiiy resurslarga (gaz, svet, suv) bog'lagan holatda tushuntiriladi. Bugun barcha o'zini ortiqcha o'yinlardan vaqtini

tejab kitob o'qisa ertaga kelajagi uchun foydali bo'lishini aytadi.



O'quvchilarni rasmlarni ko'rib chiqishi, o'qituvchi yordamida qaysi jarayon gavdalanganligini tushunib olishi lozim. Undan keyin bu rasmlarda qanday umumiylik borligi aniqlanadi. Rasm qahramonlarini nimalar birlashtirayotganligi, ularning tabiatga va o'simliklarga bo'lgan munosabati, tabiatni asrab-avaylashga qanday hissa qo'shayotganligi aniqlanadi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham tabiatni asrab-avaylash uchun qanday hissa qo'shayotganligini aytib berishi lozim.

Darslikning 81-sahifasida berilgan xalq o'gitlari ma'nosi tushuntirib beriladi, tabiat bilan bog'lab ko'rsatiladi va yod olish vazifasi beriladi.

O'qituvchi barcha o'quvchilarni diqqatini tabiat qo'yniga qaratadi va O'zbekiston tabiati haqida gapiradi. Bizning davlatimiz tabiati go'zalligi va mana shu go'zallikni asrab avaylash uchun barchamiz mas'ul ekanligimiz zarurligi aytiladi.

O'quvchilardan yashayotgan joyi va u shahar bo'ladimi yoki qishloq atrof-muhitini asrash, ozodaligini saqlash uchun qanday hissa

qo'shayotganligini aytib berishi kerak. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ham turli xil ko'rgazmali rasmlar yordamida jarayonlar ko'rsatib beriladi.

Tabiatni asrash yuzasidan "Suv va elektr energiyasini tejang!" eslatmalar ustida ishlanadi.

Gohida uyda suv va chiroqlarni o'chirishni unutamiz. Bunday holatda bizga eslatmalar zarur bo'ladi. O'quvchilar bilan birgalikda jo'mrak yoniga chiroq o'chib yopiladigan joylarga eslatmalar tayyorlanadi. Bu eslatmalarni sinf xonasiga, maktab yoki uyga ilib qo'yish tavsiya qilinadi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham o'qituvchi bilan zarur eslatmalarni tayyorlaydi va uyga berib yuboriladi. Ota-onasi yasalgan eslatmalarni uyning zarur joylariga ilib qo'yadi va bu doim bolalar yodiga tushib turishi uchun xizmat qiladi.



Berilgan rasmlarga qarab o'quvchilarga fikr bildiriladi. Bu bolalarni tejamkor deb atash mumkinmi, mumkin bo'lsa va bo'lmasa nima uchun?

Suvni isrof qilish, tabiatni asramaslik qanday oqibatlarga olib kelishi tushuntiriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham tushunishi uchun salbiy oqibatlar rasmlari ko'rsatiladi va biz bu jarayonlarni oldini olish doim mas'ul ekanligimiz ta'kidlanadi.



O'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirish va aqliy salohiyatini rivojlantirish maqsadida topishmoqlar ustida ishlanadi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham tushunishi uchun topishmoqlarning har bir qatori mazmuni tushuntiriladi. Javobidan hamda rasm asosidan kelib chiqib topishmoq mazmuni ustida ishlanadi.

Darslikning 83-sahifasidagi jadvalda berilgan fikrlarni to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligi belgilanadi. Tanlov ma'nosi tushuntiriladi.

To'g'ri



Noto'g'ri



Suv va chiroqdan foydalanmagan vaqtda o'chirmaslik		
Elektr va suvni tejash		
Duch kelgan joyga chiqindi tashlash		
Chiqindilarni saralash, maxsus joylarga tashlash		



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onalar bilan birgalikda uy hayvonlaridan birini rasmini chizishadi. Odamlar uchun foydali tomonlari va uy hayvonlarini qanday parvarish qilish haqida bilib kelish zarur bo'ladi.

Uyga berilgan vazifa ustida ishlanadi. Har bir o'quvchi uyda chizib kelgan hayvonini foydali tomonlari hamda uni qanday parvarish qilish yuzasidan ma'lumotlar beradi.

O'qituvchi yordamida vaziyat o'rganiladi va maqbul yechimlar ko'rsatiladi.

O'rtog'ingiz suvga chiqindi tashlayapti.




Xonada hech kim yo'q lekin chiroq va televizor yoqilgan.

Singlingiz qo'g'irchoq sochini yulyapti.

Har o'quvchi qatorida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham quyidagi holatlarni ko'rib qolsa qanday yo'l tutishini aytib beradi.



O'qituvchi berilgan rasmlarni ko'rsatadi, o'quvchilar tasvirlangan holat haqida gapirib berishi lozim bo'ladi.



O'qituvchi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham tushunishi uchun rasm mazmunini ochib beradi. Undan keyin ulardan ham kimgadir

g'amxo'rlik qilganligi va bundan o'zi ham, g'amxo'rlik ko'rsatilgan odam ham xursand bo'lganligi so'raladi.

Vaziyat o'rganiladi va 2 ta berilgan vaziyatdagi hikoyalar rasm asosida davom ettiriladi.

1-vaziyat. Maktabdan qaytayotganda ucha olmay yerda turgan palaponni ko'rdingiz. Endi qanday yo'l tutish yoziladi.

O'quvchilarga insonlarga mehribonlik qilgandek o'simliklarga, hayvonlarga ham mehribonlik qilish zarurligi aytiladi. Agar palapon uyasidan tushib ketgan bo'lsa uni joyiga qo'yish yoki uchib kelib shu yerda qolib ketgan bo'lsa unga uyda mehribonlik ko'rsatish zarurligi tushuntiriladi.



2-vaziyat. Ukangiz (singlingiz) katta non bo'lagini olib, ko'chaga o'ynash uchun olib ketyapti. Siz qanday yo'l tutasiz.

O'quvchilarga o'zbeklarda non juda ham ulug' ne'mat hisoblanishi, ko'chada ko'tarib yeb yurish natijasida ushog'iga yerga tushishi va isrof bo'lishi mumkinligi aytiladi. Bekorga nonning ushog'i ham non deb aytilmaganligi ta'kidlanadi.



**Nonni doim toza idishlarda saqlash;
Keragidan ortiq non ushatmaslik;
Nonni chiqindi qutisiga tashlamaslik;
Nonni yerda qoldirmaslikni doim yonimizda saqlashimiz
shart!**

Barcha o'quvchilar bilan bir qatorda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni yozish qobiliyatini rivojlantirish maqsadida filvord yechiladi.

D	I	Q	Q	A	T	B	S
T	E	J	A	M	K	O	R
G'	A	M	X	O'	R	H	Y
Q	O'	R	I	Q	L	A	Sh
K	U	Z	A	T	U	V	T
I	Sh	O	N	Ch	K	O'	Z

“Men asrayman – men qadrlayman” metodikasi

Mazkur darsni mazmunli qilish maqsadida **“Men asrayman – men qadrlayman”** metodikasidan foydalaniladi.

Ko'zlangan maqsad 🎯 bolalarda o'ziga tegishli va umumiy narsalarni ehtiyot qilish, atrof-muhitga e'tibor bilan munosabatda bo'lish ko'nikmasini shakllantirishdir.

Bu uchun rasmi taqqoslash (3 daqiqa) usulidan foydalaniladi. 2 ta rasm olinadi va:

1-rasmda toza, joyiga qo'yilgan o'yinchoqlar;

2-rasmda esa sindirilgan, tashlab yuborilgan o'yinchoqlar bo'ladi.

Savol: **“Qaysi rasmdagi bolalar asrab-avaylagan?”**. Bola to'g'ri javob beradi: **“Toza saqlagan bolalar”**.

Har bir bola asbob-uskunalarini (*qalam, kitob, o'yinchoq*) joyiga qo'yadi va iflos joyni tozalaydi.

O'qituvchi aytadi: **“Bu ishing – asrab-avaylashdir!”**.

Asrab ehtiyot qilgan bolaga (*Asrab-avaylagan yurakcha belgisi*) yurakcha belgisi beriladi.

Natijada bola o'rgatgan narsalarni saqlash, narsalarni ehtiyot qilish va atrof-muhitga g'amxo'rlik bilan qarashni o'rganadi.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar onasi hamda buvisi bilan non qanday tayyorlanishi haqida suhbatlashib kelinadi.

25-dars. Mustahkamlash

Eslatma: Inklyuziv ta'lim jarayonida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar nutqni to'g'ri va savodli egallashi uchun aynan o'qituvchiga taqlid qilish orqali amalga oshirilishini hisobga olinishi birinchi o'rinda turishi lozim.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni ham yodiga tushishi uchun oldingi darslarda o'tilgan rasmlarni ko'rsatish maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'quvchilardan bugungi kun, oy, yil hamda ob-havo ko'rgazmali qurollar asosida rolga kirib ko'rsatiladi.

O'quvchilardan nonni qanday tayyorlanish va nonni tayyorlashda qanday mahsulotlar ishlatilishi haqida so'raladi. O'quvchilar rag'batlantiriladi.


O'qituvchi o'quvchilar bilan og'zaki ravishda:

1. "Men va fazilatlarim" mavzusidan rasm asosida nimalarni eslab qolganligini so'raydi. O'quvchilar ishonch, mustaqil bo'lish, halollik, asrab avaylash kabilar haqida ma'lumotlar berishi lozim.



2. Rasm asosida o'quvchilarning yaxshi va ezgu ishlar qanday natijalarga olib kelishi haqida suhbatlashiladi.

Barcha o'quvchilar hozirdan boshlab yaxshi ishlarni qilishga harakat qilsa vaqt o'tishi bilan bu ishlar o'zining ijobiy hosilini berish tushuntiriladi.



O'qituvchi yordamida Ezopning **“Toshbaqa bilan Quyon”** hikoyasi o'qib beriladi. Mazmuni tushuntiriladi. Odam aniq maqsad sari harakat qilsa, albatta, natijaga erishishi aytiladi.



Toshbaqa bilan Quyon misolida manmanlik ustun kelganda, mag'lubiyat muqarrarligi, tinimsiz harakat va mehnat, shubhasiz, maqsadga eltishi yod oldiriladi.



Berilgan hikoya: **“Quyon nima uchun g'olib bo'lishga ishonganligi, toshbaqa yutug'ining sababi nimada, hayotda kimlar ko'proq natijaga erishadi”** kabi savollar bilan mustahkamlanadi.

O'quvchilarning yozish bilan bir qatorda fikrlash qobiliyatini oshirish maqsadida berilgan so'zlardan foydalanib, ma'no jihatdan yaqin va qarama-qarshi bo'lgan so'zlar topiladi.

	Bir-xil	Qarama-qarshi
Mehribon		
To'g'riso'z		
G'amxo'r		
Mustaqil		

Foydalanish uchun so'zlar: erkin, bag'ritosh, rostgo'y, shafqatli, beparvo, rahmdil, yolg'onchi, qaram. Mazkur topshiriqni alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham bajarishi uchun har bir foydalanish uchun berilgan so'zlarni ma'nosini tushuntirish zarur.



Darslikning 90-sahifasida berilgan belgilar chiziladi. Rasm chizilgandan keyin o'quvchilar bugungi dars davomida nimalarni o'rganganini aytib beradi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni ham o'qituvchi inobatga olib, har bir belgini alohida alohida qilib qog'ozga chiqaradi va ma'nosini, qayerda qo'llanilishini aytadi.



Rasm diqqat bilan kuzatiladi. Bu yerda kimlar tasvirlangan, qanday belgilar mavjud va har bir belgi nimani bildiradi?

Nima uchun bolalar maydonchasida maxsus tartib-qoidalarga amal qilish, ushbu tartib-qoidalarga amal qilmaslik qanday oqibatlariga olib kelishi mumkinligi tushuntiriladi.

Rasm asosida hikoya tuziladi. Dastlab hikoya og'zaki tuziladi, keyin esa barcha o'quvchilarni fikrlari bilan to'ldirilib yoziladi.

O'qituvchi shu kabi o'yin maydonchalariga chiqqan vaqti boshqa (sog'lom) o'quvchilarga alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga g'amxo'rlik qilish lozimligini aytadi.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi bilan birgalikda erkin, bag'ritosh, rostgo'y, shafqatli, beparvo, rahmdil, yolg'onchi, qaram kabi so'zlarni ma'nosi bilan yod olish.

26-27-dars. Mening xatti-harakatlarim

Eslatma: Inklyuziv ta'lim jarayonida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga vazifa qisqa, aniq, bitta harakatni ifodalaydigan, bir necha bosqichlardan iborat qilib berish undan tashqari vazifalarni shakllantirishda yakuniy mahsulotni ko'rsatish, vazifani bola bilan birga shakllantirish zarur. Xatti-harakatlarini nazorat qilishni o'rgatish bolalarga o'z his-tuyg'ularini boshqarish, ijtimoiy munosabatlarda muvaffaqiyatli bo'lish va kundalik faoliyatni samarali tashkil etishga yordam beradi.


O'quvchilardan bugungi kun, oy, yil hamda ob-havo ko'rgazmali qurollar asosida rolga kirib ko'rsatiladi.

Ota-onasi bilan birgalikda erkin, bag'ritosh, rostgo'y, shafqatli, beparvo, rahmdil, yolg'onchi, qaram kabi uyga berilgan so'zlarni ma'nosi bilan aytib berishi lozim. Shundan keyin o'quvchilar rag'batlantiriladi.

O'quvchilarga bizning vatanimiz bo'lgan serquyosh

O'zbekiston haqida ma'lumot beriladi.

O'zbekiston xalqi ajdodlardan qolgan buyuk va boy madaniy meros vorisi ekanligi ta'kidlanadi.



O'qituvchi o'quvchilarga qisqacha O'zbekiston tarixi, buyuk ajdodlarimiz, ko'hna va qadimiy, shaharlarimiz, tabiatimiz, hududimiz haqida aniq rasmlar bilan ma'lumot berib o'tadi.

Rasmga diqqat bilan qaraladi va nima ekanligi aniqlab olinadi. Undan keyin bu izlar qaysi jonzotlardan qolgan ekanligi aniqlanadi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham tushunishi uchun har bir iz



qaysi hayvonniki ekanligi aniqlanadi.

Rasmda berilgan izlarga taalluqli bo'lgan hayvonlarning rasmi tayyorlanadi. Undan keyin bolalar har bir izga tegishli hayvon rasmini o'zining izi bilan birlashtiradi. Har bir hayvon haqida ma'lumot beriladi.

O'quvchilarni tasavvur qilish salohiyatini shakllantirish maqsadida, ularga savol beriladi. Tasavvur qilamiz qirg'oqdagi qumloqda ketyapsiz, ortingizda oyoq izlari qolyaptimi savoli beriladi.




O'qituvchi mazkur qirg'oqdagi qumloqda

qolgan izlar misolida inson qilgan har bir ishidan yaxshi yoki yomon iz qolishi,

Inson hayotida qumloq yoki tuproqda odam oyoqlaridan iz qoladi, lekin biz ko'rmaydigan lekin his qiladigan izlar ham bo'ladi. Shuni uchun ham biz doim bir birimizga yordam berishimiz, ahil va inoq bo'lishimiz zarurligi ta'kidlanadi.

O'qituvchi yordamida vaziyatlar taqqoslanadi. Ikki xil xatti-harakatlar odamlar yodida qanday taassurot qoldiradi va nima uchun savoliga javob beriladi. Kimdir yaxshilik qilib kimdir esa yomonlik qilib boshqa insonlarda taassurotlar qoldirishi mumkin.



1-vaziyat. Bir savobtalab kishi mahalla markaziga chiroyli favvora qurdi. Favvora atrofga salqinlik berishi, qushlar undan ichishi, odamlar uning atrofida dam olar va suratga tushar edi. Barcha savobtalab kishini duo qilar edi.

2-vaziyat. Bir odam doim norozi kayfiyatda yuradi. Hech qachon kulmaydi, duch kelgan kishiga shikoyat qiladi. Uyi oldida o'ynab yurgan bolalarni quvadi, shu bois uni hech kim yoqtirmaydi.



O'quvchilarga ikki vaziyat ham o'qib beriladi. Ma'nosi tushuntiriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga 2 xil vaziyat taqqoslash yo'li bilan o'rtasidagi farq aytib o'tiladi.

O'quvchilar qaysi vaziyatdagi odamdek bo'lishga harakat qilishlari zarurligini aytib bera olishi lozim bo'ladi.

Barcha bilan birgalikda yozma topshiriq bajariladi. Berilgan jadvalga foydalanish uchun berilgan so'zlardan qaysilari ko'zga ko'rinadigan, qaysilari his qilinadigan xatti-harakatlar ekanligi aniqlanadi.

Ko'ramiz											
His qilamiz											


Foydalanish uchun so'zlar:

Onalar uchun tabriknoma yasash;
O'rtog'ini hafa qilish;
Xonani yig'ishtirish;
Gul ekish;
Daraxtlarni oqlash;
Singlisini ovutish;
A'lo bahoga o'qish;
Ko'chaga chiqindi tashlash;
Sinfdoshlariga kitob ulashish;
Bobosidan duo olish.



Uyga vazifa beriladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi bilan birgalikda **"Mening izim"** sxemasi to'ldiriladi.



O'qituvchi o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirish maqsadida hayotda yaxshi nom qoldirish uchun **"Nima qilishni xohlagan bo'lar edingiz"** mavzusida rasm ishlashni so'raydi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ham namuna sifatida yaxshi nom qoldirish uchun namunalar aytiladi va qanday holatda rasm chizmoqchiligi so'raladi. O'qituvchi unga yordam beradi va mazmuni bilan boshqa o'quvchilarni tushuntiradi. Har bir

o'quvchining yaxshi nom uchun nima qilishni xohlashi yuzasidan chizgan rasmini muhokama qilinadi.

O'qituvchi tomonidan hikoya o'qib beriladi, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham inobatga olinib to'liq mazmuni tushuntirib beriladi. matn va rasm asosida unga sarlavha qo'yiladi.

Hikoyada o'quvchilar tabiatga sayrga chiqishi yuzasidan voqealar ketma-ketligi davom etadi.



Hikoya quyidagi rasm asosida davom ettiriladi. O'qituvchi o'quvchilarga rasmda qanday holatlar tasvirlanganini aytib beradi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar rasmdagi predmetlarni nomini aytib berishi lozim bo'ladi. O'quvchilar tabiat qo'ynida yo'l qo'ygan kamchiliklari aytib o'tiladi.


Hikoya **“Sayrdan keyin o'quvchilar nimalarni qoldirib ketishganligi, bunday holat yomon oqibatlariga olib kelishi, tabiatga zarar keltirmaslik uchun nimalar qilish kerak”** kabi savollar bilan mustahkamlanadi.



Barcha o'quvchilarga hamma tabiatni asrash uchun mas'ul ekanligi aytiladi.

O'qituvchi o'quvchilarga **“Oqila malika”** nomli rivoyatni o'qib beradi. Mazmunini tushuntiradi. Bizning o'zbek xalqining buyuk bobokalonlari bo'lganligini ta'kidlaydi.

Rivoyat Amir Temur va Bibixonim kim ekanligi, hikoya nima uchun **“Oqila malika”** deb nomlangan kabi savollar bilan mustahkamlanadi.



Xalqimiz orasida **“Yaxshidan bog‘ qoladi”** deb bekorga aytilmaganligi rivoyat orqali yana bir bor tilga olinadi.

“Men qanday ish qilyapman?” metodikasi

Dars mashg‘uloti yanada mazmunli bo‘lishi uchun **“Men qanday ish qilyapman?”** metodikasidan foydalaniladi. Maqsad bolada o‘z xatti harakatlari uchun javobgarlikni his qilish va yaxshi xulq-atvorni tanib olish ko‘nikmasini shakllantirishdir.

Bu rasmi kartochkalar bilan tanishuvdan (3 daqiqa) boshlanadi.

2 turdagi rasm ko‘rsatiladi:

yaxshi xatti-harakat: o‘yinchoq ulashayotgan, navbat kutayotgan bola;

noto‘g‘ri xatti-harakat: urishayotgan, narsani tortib olayotgan bola.

O‘qituvchi tomonidan: **“Bu bola nima qilyapti, to‘g‘rimi?”** deb savol beriladi. Bolalar fikr bildirishadi.

O‘qituvchi kundalik vaziyat aytadi:

do‘stimga yordam berdim;

o‘yinchoqni sindirdim, kabi. Bolalar **“Bu yaxshi”** yoki **“Bu noto‘g‘ri”** deb aytadi.

Yaxshi xatti-harakat qilgan bolaga yurakcha belgisi beriladi. Metodika natijasida bola o‘z xatti harakatlari oqibatini tushunadi, yaxshi xatti-harakatni tanlab, ijtimoiy javobgarlikni shakllantira boshlaydi.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta‘lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ota-onasi bilan birgalikda do‘stlari bu hafta davomida qanday yaxshi ishlar qilishganligi, kattalardan yaxshilikning foydasi, nimalarni bilib olish haqida gapirib berishga tayyorlanib kelinadi.

28-29-dars. Mehmondorchilik odobi

Eslatma: Bolaga matematik amallarni bajarishi uchun: “Bolaning salbiy tomonini emas, balki uning yaxshi xulq-atvorini ta’kidlashga harakat qilish, intizomning kichik buzilishlariga e’tibor bermaslik, xatti-harakatlari dori-darmon bilan bog’liq bo’lishi, yaxshi baho olishi uchun topshiriqni qayta yozishiga, o’qishiga ijozat berish lozim. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalarga mehmondorchilik odobini o’rgatish kelajakda ijtimoiy integratsiya uchun foydali bo’lishi uchun harakat qilish zarur.

O’quvchilardan bugungi kun, oy, yil hamda ob-havo ko’rgazmali qurollar asosida rolga kirib ko’rsatiladi.

Uyga berilgan do’stlari bu hafta davomida qanday yaxshi ishlar qilishganligi, kattalardan yaxshilikning foydasi haqida o’rganib kelgan ma’lumotlari tinglanadi va rag’batlantiriladi.

Berilgan savollarga birgalikda javob beriladi.

Mehmonga borishni yoqtirasizmi? Mehmon taklif qilishni-chi? O’quvchilarning javobiga qarab mehmonga borish odobi, mehmon taklif qilish yuzasidan sehrli so’zlar tushuntiriladi.

Mehmon kelishiga qanday tayyorgarlik ko’rasiz? Uyga mehmon kelsa onangizga yordam berasizmi? kabi savollar beriladi. Mehmonga borish va mehmon kutish o’zbek xalqining madaniyatini ko’rsatib beruvchi urf odatlarimizdan ekanligi, o’quvchilarning odobi mehmonga borgan vaqti o’zini tutishidan ham bilinishi haqida tushuntirish beriladi.

O’qituvchi o’zbeklar mehmondo’sst xalq ekanligi, uy ostonasidan kirib kelgan barcha insonlarga hurmat ko’rsatib, uni ochiq chehra bilan kutib olish va mehmon qilish xalqimizning boshqa xalqlar havas qiladigan tomonlaridan ekanligi aytiladi.

Y	N	S	A	K	K	I	Z	I	N	C	H	I	M	A	R
A	A	Y	M	V	A	Q	I	G	U	N	Y	P	N	T	
N	V	Z	U	S	T	G	L	S	K	I	S	H	K	U	U
G	R	O’	D	X	I	R	L	I	K	R	A	L	N	I	
I	Y	I	L	O	T	A	V	A	Q	A	D	R	S	A	



Berilgan jadvaldagi harflardan mamlakatimizda nishonlanadigan bayramlar topiladi. Har bir topilgan bayramni alohida ta’lim ehtiyojlari bo’lgan bolalar qaysi sanada nishonlanishini aytib berishi lozim.

O'qituvchi yordamida o'rganiladi. Bunda o'quvchilarga sizni mehmonga



taklif qilishdi, o'zbeklarda quruq qo'l bilan borish odobdan emas, hurmat yuzasidan biror sovg'a olib borish mezbonni xursand qiladi. Sovg'ani to'g'ri tanlash uchun mezbonlarga nima yoqishini bilish kerak bo'ladi.

Bunday vaziyatda sovg'ani qanday tanlash yuzasidan o'qituvchi tomonidan maslahatlar

beriladi. Bunda sovg'a berayotgan odamga yoqmasa ham mehmonni xafa qilmaslik uchun berish lozimligi tushuntiriladi. Undan tashqari alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga sovg'ani qiymati ya'ni katta kichigi bo'lmasligi muhimi e'tibor ekanligi tushuntiriladi.

Yaqinlaringizga o'zingiz tayyorlagan sovg'a bilan xursand qilish uchun:



Qog'ozdan tabriknoma, taklifnoma, gilamcha, tayyorlash;

Bo'sh qutilardan chiroyli sandiqchalar yasash;

Matodan kashtanli ro'molcha, savatcha, igna yostiqlikchasi, ko'zoynak uchun g'ilof yasash;

Undan tashqari sovg'ani chiroyli qilib bezash maqsadga muvofiq.



Barcha o'quvchilar tug'ilgan kun uchun taklifnoma rasmini chizadi va buni kimga berishini aytishi lozim. Rasm chizishda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar nimalardan foydalanganligini aytib berishi zarur.

Barcha o'quvchilar yodda tutishi zarur:



Taklif qilingan joyga boring.

Kech qolish odobdan emas.

Dasturxon odobiga amal qiling.

Mehmonda uzoq o'tirib, mezbonlarni zeriktirmaslik kerak.

Ketayotganda mezbonlarga minnatdorlik bildirish lozim.

O'qituvchi tomonidan berilgan barcha savollarga alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham boshqa (sog'lom) o'quvchilar bilan birgalikda javob berishi lozim.

Kimning uyida mehmonda bo'lgansiz, shu vaqti biror qiziqarli voqea bo'lganmi, nimalardan xursand bo'lgansiz kabi savollar beriladi.



Undan tashqari, rasmda ko'rsatilgan vaqti bilan siz mehmonga borgan joyda qanday farqlar bo'lgan edi?, mehmonga borishdan oldin ota-onangiz sizga nimalar deb yubordi? kabi savollar bilan mustahkamlanadi.

O'qituvchi **“Odobni odobsizdan o'rgandim”** xalq o'gitini o'qib beradi. Ma'nosini tushuntiradi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham tushunishi uchun sinfda ikki nafar o'quvchi tanlanadi va ularning biri odobli bola uchun xos bo'lgan xatti-harakatlar, gaplar gapiradi. Ikkinchi o'quvchi esa odobsiz bolaning xatti-harakatlarini namoyon qiladi. O'qituvchi ularni taqqoslab beradi va shu orqali to'liq tushunib oladi.

O'quvchilar bilan guruhlarda ishlanadi. Mehmonda o'zini tutish qoidalaridan to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini belgilaydi.

To'g'ri



- Eshikni qattiq taqillatish
- Mezbon uchun shirinliklar olib borish
- Uy egalarining ruxsatisiz ularning narsalariga tegish
- Shovqin solish
- Mehmonda telefon o'ynab o'tirish

Noto'g'ri



- Taklif qilinmagan joyga borish
- Dasturxon atrofida tartib saqlab o'tirish
- Uy egalariga qo'pollik qilish
- Kech qolmasdan o'z vaqtida borish
- Uy egalari bilan xayrlashmasdan ketish

Har bir berilgan mehmonda o'zini tutish qoidalari tushuntiriladi, iloji boricha amaliy obrazga kirgan holatda tushuntirib beriladi.

“Mehmon keldi – odobni ko'rsat!” metodikasi

Mazkur **“Mehmondorchilik odobi”** mavzusi tushunarli bo'lishi uchun **“Mehmon keldi – odobni ko'rsat!”** metodikasidan foydalaniladi.

Ko'zlangan asosiy maqsad bolalarda mehmon kutish, suhbatlashish va odobli muomala qilish ko'nikmalarini shakllantirishdir.

Bu uchun 2 ta rasm ko'rsatiladi:

1-rasm: mehmon kelgan, bola salom beryapti, joy ko'rsatyapti;

2-rasm: bola befarq, yuz o'girgani.

Savol: **“Qaysi bola mehmondorchilik odobini ko'rsatdi?”**. Berilgan javoblar muhokama qilinadi.

Metodika tushunarli bo'lishi uchun **“Mehmon keldi”** (5 *daqiq*a) roli o'ynaladi.

Bu juftlikdagi o'yin bo'lib:

1-bola mehmon bo'ladi, 2-bola uni kutadi. **“Salom, xush kelibsiz!, marhamat, o'tiring”** kabi so'zlarni aytadi. Keyin rollar almashadi.

O'yin davomida mehmondorchilik odobi ko'rsatgan bolaga yulduzcha belgisi beriladi.

Natijada bola mehmon kelganda qanday munosabatda bo'lishni, odobli so'zlar va xatti-harakatlarni o'rganadi.



Uyga vazifa beriladi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi bilan birgalikda biror do'sti yoki yaqini uchun o'z qo'li bilan sovg'a tayyorlab kelishi vazifasi beriladi.

30-31-dars. Bag'rikeng yurtim

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni zerikishni oldini olishning eng samarali usuli o'zi bajarayotgan ishdan zavqlanishi va motivatsiya olishi bo'lib, maxsu pedagog turli xil o'yinlar qo'llash hamda imkon qadar mashg'ulotlarni amaliy tarzda tashkil qilishi va shu orqali xotirani rivojlanishi uchun ham juda zarurdir.

O'quvchilardan bugungi kun, oy, yil hamda ob-havo ko'rgazmali qurollar asosida rolga kirib ko'rsatiladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar otanasi bilan birgalikda do'sti yoki yaqini qarindoshi uchun yasagan sovg'asi ko'riladi, nima ekanligi va aynan kim uchun tayyorlaganligini, tayyorlash jarayonida nimalardan foydalanganini aytib beradi. Rag'batlantiriladi.

Darslikning 106-sahifasidagi QK ga joylangan videorolik tomosha qilinadi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ham inobatga olinib videorolik yana bir bor qo'yib beriladi.

Berilgan rasimga qarab O'zbekiston qaysi davlatlarga chegaradosh ekanligi aytiladi. Undan keyin har bir davlatning milliy liboslari topiladi.

Rasm kattaroq ko'rinishda sinf doskasiga chiqarib ilib qo'yiladi va alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolaga nomi aytilgan davlatni ko'rsatish so'raladi. Rasmda berilgan har bir milliy liboslar alohida alohida qilib chiqarib olinadi. Har bir davlat aytib o'tilgandan keyin milliy liboslar qaysi davlatniki ekanligi aniqlanib, doskada chiqarib qo'yilgan rasimga borib yopishtiriladi.



O'qituvchi bilan birgalikda ishlanadi.

O'qituvchi videorolikda ko'rsatilganidek O'zbekiston aholisini asosan o'zbeklar tashkil qilishi, shu bilan birga yurtimizda qoraqalpoq, tojik, rus, qozoq, qirg'iz, turkman va boshqa millat va elat vakillari ahil-inoq yashayotganligini aytib beradi.

Darslikning 107-sahifasida berilgan mazkur rasm asosida o'qituvchi har bir alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga tasvirlangan qahramonlarni qaysi millatga mansubligini aytadi va qo'li bilan rasmga tekkizib ko'rsatiladi.


Har xil millat va elatlarga mansubligimizdan qat'iy nazar biz doim ahil va inoq bo'lishimiz zarur.



Guruhlarda ishlanadi.

Sinf ikki guruhga bo'linadi. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni ham guruhlardagi ishtirokini oshirish hamda motivatsiya berish maqsadida guruh sardori qilib qo'yishadi. Ularga bir nafardan o'quvchi yordamchi sifatida biriktiriladi.

Guruhlar inson hurmatiga sazovor bo'lish uchun qanday fazilatlarga ega bo'lish kerakligini yozishi kerak bo'ladi. Bitta namuna sifatida ko'rsatilishi zarur.



O'quvchilarga tarbiya berish bilan bir qatorda yozma qobiliyatini oshirish maqsadida o'ylab ko'rish va shu mavzu asosida gaplarni to'ldirish mashqi beriladi.

1. Endi men.....bilib oldim.
2. Endi men.....qilaman.
3.qilmayman.

“Yurtim hammaga ochiq – yuragim bag‘rikeng” metodikasi

Dars alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga tushunarli bo'lishi uchun **“Yurtim hammaga ochiq – yuragim bag‘rikeng”** metodikasidan foydalaniladi.

Ko'zlangan asosiy maqsad bolalarda Vatanga mehr, millatlararo do'stlik, bir-biriga hurmat ruhini shakllantirishdir.

Buning uchun rasmlarga qarab suhbat (3 daqiqa) tashkil qilinadi. Rasmda O'zbekiston bayrog'i ostida turli millat bolalari quchoqlashib turganligi tasvirlangan.

Savol: **“Bu bolalar qanday yashayapti?”**;

Bolalar: **“Do'stona, birga, bag‘rikeng yurtida”** yashayapmiz.

“Men yurtimni sevaman, chunki...” (5 daqiqa) deb davom ettiradi. Har bir bola o'z fikrini aytadi:

chunki u yerda tinchlik bor;

do'stlarim shu yerda juda ko'p;

hammaga mehmondo'stlik bilan qaraladi.

Shuningdek, **“Yurt yuragi”** o'yini (5 daqiqa) o'tkaziladi. Yurak shaklidagi plakatga har bola yurti haqida ijobiy so'z (tinchlik, do'stlik, mehr, hurmat) yozilgan yurakcha yopishtiradi.

O'qituvchi aytadi: **“Mana bu bizning bag‘rikeng yuragimiz – yurtimiz timsoli!”**dir. Natijada alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar Vatanini yaxshi ko'rish, undagi tinchlik, do'stlik, mehr va bag'rikenglikni angelaydi, qadrlaydi.



Uyga vazifa beriladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ota-onasi bilan birgalikda rasmda berilgan yulduzchalarga do'stlarini ismi yoziladi. Ular haqida qisqacha hikoya tuziladi. Boshqalarga qanday munosabatda bo'lish kerakligi o'ylab ko'riladi.



32-dars. Mustahkamlash

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga barcha mashg'ulot davomida bir xillik va qat'iy intizom o'rniga ko'tarinki kayfiyat va qiziquvchanlik bilan tashkil qilinishi, doim bolaning qiziqishidan kelib chiqib ishlashga kirishish zarur.

O'quvchilardan bugungi kun, oy, yil hamda ob-havo ko'rgazmali qurollar asosida rolga kirib ko'rsatiladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar otanasi bilan birgalikda rasmda berilgan yulduzchalarga do'stlarini ismini yozib kelishi va shu asosida qisqacha hikoya tuzilib kelgan bo'ladi. Undan keyin o'quvchilar rag'batlantiriladi.



O'quvchilarga yozma topshiriq beriladi. Gaplar yakunlanadi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar berilgan gaplarga oid bo'lgan uchta yoki to'rtta so'zlar aytishi yoki og'zaki ravishda gapirib berish

mumkinligi aytiladi.

1. Vatan – bu.....
2. Do'stlik – bu.....
3. Maktabimni yaxshi ko'raman, chunki.....
4. Odobli bo'lish – bu.....
5. Tabiatni asrab-avaylashimiz kerak, aks holda.....

Har bir tuzilgan gaplarning ma'nosi ustida ishlanadi. Vatanni sevish, yaxshi do'st bo'lish, maktabni, sinfni, o'qituvchilarni yaxshi ko'rish, odobli, aqli bo'lish, tabiatni asrab-avaylash barchamizning burchimiz ekanligi yana bir bor ta'kidlanadi.



32-dars. Yakuniy dars

Eslatma: Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'z sog'lom tengdoshlari bilan birgalikda umumta'lim maktablarida bilim olishi, do'stona munosabat muhitini, teng huquqligini, turli xildagi zo'ravonlik hamda kamsitishlarga yo'l qo'ymaslikni, shu bilan birga bir sinfda bir xil sharoitda ta'lim-tarbiya olishi doim maqsad qilib olishi zarur.

O'quvchilardan bugungi kun, oy, yil hamda ob-havo ko'rgazmali qurollar asosida rolga kirib ko'rsatiladi.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar otanasi bilan birgalikda **“Mustahkamlash”** yuzasidan berilgan vazifalar takrorlanadi va faol ishtirok etgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

O'qituvchi tomonidan savollar beriladi va o'quvchilarning fikrlari o'rganiladi. Fikrlar bildirilgandan keyin o'qituvchi tomonidan to'ldirilishi lozim.

O'quvchilardan:

1. Tarbiya so'zining ma'nosi;
2. Insonlarning yaxshi xislatlari;

3. Odamlarning qanday yomon jihatlari bo'lishi mumkinligi yuzasidan savollar beriladi.



Bir necha nafar faol o'quvchilar fikrlaridan keyin alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar fikrlari eshitiladi va bo'shliqlar to'ldiriladi.

Barcha bolalar bilan guruhlarda ishlash:



Har bir o'quvchi darslikda o'zi istagan mavzuni topadi va u haqida gapirib beradi.

“Jonajon Vatanim”;

“Maktabim – ikkinchi uyim”;

“Men mustaqil bo'laman”;

“Muloqot qoidalar”.

Mazkur topshiriqda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ham quyidagi mavzular mazmuni bilan yana bir bor tushuntiriladi. Mavzuga oid bo'lgan so'zlar aytsa ham guruh ishtirokchilari ham

o'qituvchi yordamida to'ldiriladi. Darslikning 112-sahifasida berilgan rasmlardagi belgilarni har birini alohida alohida qilib chizib qirqib olinadi va vazifasi va qo'llanilishi tushuntiriladi.



Rasm asosida “**Biz Hayvonot bog‘iga bordik**” mavzusida kichik hikoya tuziladi.

Tuzilgan hikoya sarlavhasi hamda mazmuni tushuntirib beriladi.



Rasm asosida o'quvchilarning fikrini bilish maqsadida ularga quyidagi savollar beriladi.

Rasm qayerda tasvirlangan?

Qanday belgilarni ko'ryapsiz?

Har bir belgi nimani ifodalaydi?

Nima uchun Hayvonot bog'ida maxsus qoidalarga rioya qilish kerak?

Ushbu qoidalarga amal qilmaslik qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?, kabi savollar orqali sog'lom o'quvchilar bilan bir qatorda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ham “**Hayvonot bog'i**”da o'zini tutish, o'rnatilgan belgilarga qat'iy amal qilish tushuntiriladi.

Hayvonot bog'ida va shu kabi jamoat joylarda o'zini tutish orqali birgina o'ziga emas balki maktabga, ustozlariga, ota-onasiga baho berilishi uqtiriladi.

Xalqimiz orasida bejizga “**Bola aziz, odobi undan aziz**” deb aytilmaganligi ta'kidlanadi.

O'qituvchilar uchun tavsiyalar

Inklyuziv ta'limni tashkil etish insonparvarlik, umuminsoniy qadriyatlar, bag'rikenglik, oshkoralik tamoyillariga asosan amalga oshiriladi.

Shunday ekan umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'lim sinflarining tashkil etilishi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning kelajagiga ijobiy ta'sir etish bilan bir qatorda boshqa (sog'lom) bolalarning ham hayotiga qanday ta'sir ko'rsatadi degan savol tug'ilishi mumkin.

o'zlariga o'xshamagan tengdoshlari, ularning hayoti, ehtiyojlarini his qilishni o'rganadi;

tengdoshlariga nisbatan g'amxo'rlik hissi uyg'onadi;

qo'llab-quvvatlash, yordam berishga intilish, insonparvarlik hissi tarbiyalanadi;

o'quvchilarda atrofdagi insonlarga, imkoniyati cheklangan shaxslarga pozitiv munosabat, o'zaro hurmat ruhi shakllanadi;

yordamga muhtoj shaxslarga e'tiborsizlik qilmaydigan o'quvchilarga aylanadi;

shukronalik hissi uyg'onadi;

o'zini boshqalarga yordami tegayotganligidan faxrlanadi.

Inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyoji bo'lgan bolalarga esa:

o'z imkoniyatini o'zi uchun kashf etish imkonini beradi;

mustaqil harakatlanish, birgalikda yurish, hamkorlikda ishlash imkoniyati yuzaga keladi;

dunyoqarashi kengayadi, hayotiy tajribasi oshadi;

o'qishga bo'lgan ehtiyoji va qiziqishlari ortadi;

o'zini barcha bilan bir xil his qila boshlaydi;

oldin sezilmagan imkoniyatlari yuzaga chiqadi;

yotsirash, yakkalanish kabi xususiyatlari yo'qoladi;

ijtimoiy hayotga moslashadi.

Hozirgi kunda innovatsion bilim, malaka hamda ko'nikmalar bilan qurollangan o'qituvchilar ta'lim-tarbiya berish bilan bir qatorda tashqi ko'rinish madaniyatiga e'tibor bilan qarashi, o'zida zamon talabi darajasidagi tashqi qiyofani odat qilishi maqsadga muvofiq. O'qituvchi har doim o'quvchilar bilan bir qatorda ijtimoiy jamiyatning har qanday sohasida faoliyat olib borayotgan insonlarga o'rnak bo'lishi zamon talabi darajasi deb qarashi zarur.

O'qituvchining tashqi qiyofasi ya'ni, kiyinish uslubi ko'pincha uning ichki dunyosi, madaniyatini aks ettiradi. Toza, ozoda, qulay, ko'zga tashlanmaydigan, kiyinish madaniyatiga amal qilib yursa o'quvchilar uchun ibrat bo'la oladi. O'qituvchining butun qiyofasi bolalarni o'quv jarayonidan chalg'itmasligi ularning o'z oldiga qo'yilgan asosiy talablari sirasiga kiradi.

O'qituvchining nutqi hamma vaqt o'zbek adabiy tilini o'zida aks ettiruvchi, zamonaviy texnika, texnologiya, xalqaro qabul qilingan terminologiyalardan to'g'ri va o'rinli qo'llashi hozirgi zamon talabi darajasida

bo'lishi lozim. Agar o'tiladigan dars mashg'uloti mavzusi o'qish, hikoya, xalq o'g'itlari, maqol, tez aytish bo'lsa, obrazga kirib, bolaning qalbiga kirib boradigan darajada qiziqтира olishi talab etiladi.

Mashg'ulot mavzusi og'zaki bayon etish, tushuntirishdan iborat bo'lsa, nutq tekis, ravon, bir maromda va osoyishta bo'lishi maqsadga muvofiq. Butun jarayonda o'qituvchi o'z nutqining grammatik va leksik savodxonligiga e'tibor bergan holda sustkashlikka yo'l qo'ymasdan, kerakli o'rinda obrazli qilib, o'quvchilar havas bilan taqlid qiladigan darajada to'g'ri til ko'nikmalariga e'tibor qaratilishi lozim.

Shu o'rinda barcha o'quvchilar qatorida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning nutqni to'g'ri va savodli egallashi uchun aynan o'qituvchiga taqlid qilish orqali amalga oshirilishi hisobga olinishi zarur. Inklyuziv ta'lim jarayonida o'qituvchi yuqori darajada xushmuomalalik va sabr-toqatni namoyon qilishi, qo'pollik va hurmatsizlikka mutlaqo yo'l qo'ymasligi talab qilinadi.

O'quvchi bilan muloqot do'stona ruhda, optimistik kayfiyatda bo'lishi talab etiladi. O'qituvchining bolalarga berayotgan har qanday ma'lumotida insonparvarlik, samimiylilik aks etib turishi, inklyuziv ta'limda faoliyat olib borayotgan bunday o'qituvchi bilan bir marta muloqotga kirishgan shaxs (ota, ona, bola) da u bilan yana suhbatlashish, muammolari bilan dardlashish istagi paydo bo'ladigan bo'lishi maqsadga muvofiq. Shunda ko'zlangan maqsadga tez va samarali erishish mumkin.

Inklyuziv ta'limda faoliyat olib boradigan o'qituvchi to'g'ridan-to'g'ri muloqot qobiliyatiga, gnostik ko'nikma, didaktik mahorat, o'yin qobiliyati, tashkiliy ko'nikmalar, kommunikativ-rejissyorlik, prognostik va aks ettirish qobiliyatlari hamda ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. Undan tashqari doimiy ravishda motivatsion ko'nikmalarni ham rivojlantirib borishi, ya'ni, o'quv jarayonida bolalar nima o'rganayotganlarini va bu qanday yordam berishi mumkinligini anglashi, ularning istak-xohishlarini aniqlay olishi lozim.

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'qituvchi tomonidan darsda o'qish vaqtida darslikni ochishda, kerakli sahifani topishda, qayerda o'qishimizni ko'rsatishda yordam berilishi kerak. Bunday holatlar nafaqat inklyuziv sinflarda balki barcha sinflarda ham uchraydi. Bu holda bola ba'zi sabablarga ko'ra darsning borishini kuzatishni istamaydi va tanqidga uchraydi. Shuning uchun ularga yordam berilishi kerak.

Dars davomida siz topshiriqlarni bajarish vaqtini ko'proq qilishingiz kerak (agar bu matn uchun savollar bo'lsa, unda siz 3 ta yoki 4 ta savollarni muhokama qilishingiz mumkin). Shuningdek, matnni to'liq o'qimaslik tavsiya etiladi, chunki bolalar juda tez charchaydi.

Savollarga javob berganda, respondentga o'ylash uchun biroz ko'proq vaqt berilishi kerak (bolalarning reaksiyasi sekinlashish holati kuzatilishi mumkin). Yozma ish, testlar ancha vaqt talab etilishi (o'qituvchining yordami kerak, ya'ni, daftar toping, daftarni oching, daftar, qalam toping va h.k.) inobatga olib bunday holatda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun vazifani quyidagicha shakllantirishingiz kerak:

topshiriq og'zaki va yozma ravishda tuzilishi kerak;
vazifa qisqa, aniq, bitta harakatni ifodalaydigan, bir necha bosqichlardan iborat bo'lishi;
vazifalarni shakllantirishda yakuniy mahsulotni ko'rsating (tayyor matn, matematik muammoning yechimi va hokazo);
vazifani bola bilan birga shakllantirish;
bolaga ishni tugatish imkoniyatini berish;
bolani to'g'ri baholash ya'ni bolaning salbiy tomonini emas, balki uning yaxshi xulq-atvorini ta'kidlashga harakat qilish;
intizomiy kichik buzilishlariga e'tibor bermaslik;
bola yaxshi baho olishi uchun topshiriqni qayta yozishiga, o'qishiga ijozat berish (keyinchalik qayta ishlangan ish uchun bahoni hisoblash);
bolani baholashda iqtidori, imkoniyatidan kelib chiqqan holda baholash tizimidan foydalanish;
agar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bola butun sinf oldida javob berishi qiyin bo'lsa, unda unga tugallangan topshiriqni kichik guruhlarda o'rtoqlarining yordamidan foydalanish imkoniyati berilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.** O.Usmanova, Y.Risyukova, Tarbiya 1-sinf umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darsligi, Novda Edutainment, Toshkent, 2024-yil.
- 2.** O.Usmanova, Y.Risyukova, Tarbiya 2-sinf darsligi, Novda Edutainment, Toshkent, 2022-yil.
- 3.** O.Usmanova, Y.Risyukova, Tarbiya 3-sinf darsligi, Novda Edutainment, Toshkent, 2023-yil.
- 4.** O.Usmanova, Y.Risyukova, Tarbiya 4-sinf darsligi, Novda Edutainment, Toshkent, 2023-yil.
- 5.** S.Mo'minov, Sh.Axmedova, G.Alimova "Inklyuziv sinfdagi maxsus o'qituvchining alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilar bilan ishlash metodikasi" nomli metodik qo'llanma, Toshkent, 2022-yil.
- 6.** S.Mo'minov, G.Alimova "Mashg'ulotlarda interfaol usullar" metodik qo'llanma, Toshkent, 2025-yil.
- 7.** G.Alimova, S.Mo'minov "Inklyuziv ta'limda korreksion rivojlantiruvchi mashg'ulotlar" metodik qo'llanma, Toshkent, 2025-yil.

Mundarija

1-sinf

Kirish 3

Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'lim sinflarida joylashtirish.....	5
1-dars. Jonajon Vatanim.....	8
2-dars. Men kimman?.....	11
3-4-darslar. Maktabga sayohat.....	13
5-6-darslar. Maktabim-ikkinchi uyim.....	18
7-dars. Uydan maktabgacha yo'l.....	22
8-dars. Biz ahil jamoamiz.....	24
9-dars. Mustahkamlash.....	27
10-11-dars. So'zlashish odobi.....	29
12-13-dars. O'zaro yordam.....	32
14-15-dars. Minnatdorlik.....	35
16-dars. Mustahkamlash.....	38
17-18-dars. Ishonch nima?.....	40
19-20-dars. Men mustaqil bo'laman.....	43
21-22-dars. Halollik.....	47
23-24-dars. Asrab avaylaymiz.....	51
25-dars. Mustahkamlash.....	58
26-27-dars. Menning xatti-harakatlarim.....	61
28-29-dars. Mehmondorchilik odobi.....	66
30-31-dars. Bag'rikeng yurtim.....	69
32-dars. Mustahkamlash.....	72
32-dars. Yakuniy dars.....	73
O'qituvchilar uchun tavsiyalar	76
Foydalanilgan adabiyotlar	80